

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

LOTIN TILI VA TIBBIYOT
TERMINOLOGIYASI

USLUBIY QO'LLANMA

NAMANGAN - 2021

Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga asoslangan ushbu uslubiy qo'llanma 60910200 "Davolash ishi", 60910300 "Pediatriya ishi" ta'lim yo'nalishlarining DTS, o'quv rejasiga va lotin tili va tibbiy terminologiya fanining modul dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: **R.Y.Inatullayeva**, Namangan davlat universiteti
Tibbiyot kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar: **T.O.Rahmonov**, NamDU Tibbiyot kafedrası dotsenti, t.f.n.
D.I.Karimova, NShBSh shifokori, t.f.n.

O'quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2021-yil 27-sentabr №3-sonli yig'ilishida muxokama qilingan.

So'z boshi

Ma'lumki, kasbni egallash kasb tilini o'rganish, shu bilan birga tushunchalar va ularni ifodalovchi atamalar tizimini o'zlashtirish bilan amalga oshiriladi. Hozirgi zamon tibbiy atamashunosligi tom ma'noda keng va murakkab atamalar tizimi hisoblanib, bir necha yuz ming so'z va so'z birikmalarini o'z ichiga oladi. Tibbiy va biologik atamashunoslikning o'ziga xos xususiyati ko'p asrlik "an'anaviy" lotin tilini qo'llashdadir.

Talabalarning tibbiy kasb tilini muvoffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun asosiy o'quv bazasi zarur. "Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi" fani bo'yicha ushbu o'quv-qo'llanma shunday baza bo'lib hisoblanadi.

Ushbu qo'llanma tibbiyot institutlarining I kurs talabalari uchun tuzilgan. Qo'llanmada tibbiy atamashunoslikning Anatomik atamalar bo'limi yoritilgan.

Bo'limda grammatik materiallar, mustaxkamlash uchun mashqlar, leksik minimum, testlar, kasbga oid ibora hamda maqollarni o'z ichiga oladi.

Ayrim mavzular bo'yicha o'z-o'zini tekshirish uchun topshiriqlar berilgan bo'lib, ular ma'lum tushunchalarni o'zlashtirish kabi muhim o'quv-uslubiy vazifani bajaradi.

Наманган давлат университети ўқитувчиси Инатуллаева Раъно Юнусовна томонидан ёзилган “Лотин тили ва тиббиёт терминологияси” номли ўқув-услугий қўлланмага

ТАҚРИЗ

Ушбу қўлланма 60910200-Даволаш иши, 60910300-Педиатрия, йўналишлари талабаларига “Лотин тили ва тиббиёт терминологияси” фанидан амалий машғулотларини ўтказишга мўлжалланган. Мазкур қўлланма намунавий фан дастури асосида яратилган ишчи дастурга мос равишда ишлаб чиқилган. Қўлланмадан тиббиёт соҳаси бўйича бакалавр йўналишида тахсил олаётган талабалар “Лотин тили ва тиббиёт терминологияси” дарсларида Анатомик атамалар модули бўйича амалий машғулотлари тавсифлари ўрин олган.

Ушбу фанни ўрганишда, материални тўлиқ ўзлаштириш учун инсон хотирасининг барча турларидан фойдаланиш зарур. Хусусан, эшитиш (маъруза тинглаш, оғзаки саволларга жавоб бериш), кўриш (диаграммалар, расмлар, жадваллар, муляжлар, фантомларни кўриш ва х.к.), хотира (инсон аъзоларини номини, касалликлар номини, дорилар номини ёд олиш) ва албатта, олинган билимни мустахкамлаш учун машқлар ва тест топшириқлари ҳам заруратга эга.

Тавсия этилган қўлланма тиббиёт институтларининг 1-курс талабалари учун тузилган бўлиб, Анатомик атамалар бўлими ёритилган. Хусусан, қўлланмада мавзулар баёни, мавзуга оид саволлар, мустахкамлаш учун машқлар, мустақил ишлаш учун машқлар, лексик минимум, тест саволлари, фотосуратлардан фойдаланилган ва олинган маълумотларни тизимлаштириш принципи асосида қурилган.

Тавсия этилган қўлланмада қуйидагилар мавжуд:

- Анатомиа бўлимига кириш;
- Мавзунини ёритиш;
- Машқлар бажариш;
- сўров ёрдамида ҳар бир дарсда ўтказиладиган жорий назорат учун муқобил саволлар;
- тест саволлари.

Қўлланмада келтирилган маълумотлар, берилган саволлар ва тестлар талабалар учун тушунарли равишда келтирилган. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, “Лотин тили ва тиббиёт терминологияси” номли ўқув-услугий қўлланмани давлат таълим стандартларига жавоб беради деб ҳисоблайман ва тиббиёт институти I босқич талабаларига дарсларни ташкиллаштириш жараёнида фойдаланишга тавсия этаман.

Наманган давлат университети Тиббиёт
кафедраси доценти,
тиббиёт фанлари номзоди:

Т.О.Рахмонов.

1.Mavzu: Tibbiy terminologiyasiga kirish.

Lotin alifbosi. Unli va undosh harflar.

Dars maqsadi:

Talabalarga-

- 1.Lotin tilining qisqacha tarixi.
- 2.Lotin tili alifbosi.
- 3.Unli, undosh xarflar tasnifi haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1.Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

4.O'quv – uslubiy majmua

5. Mavzuga oid PPT.

6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni so'rash;
2. Yangi mavzu bayoni;
3. Mashqlar bajarish;
4. Mustaxkamlash;
5. Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

LOTIN TILINING QISQACHA TARIXI

Tibbiyotga oid yangiliklar, kasalliklar, dorilarning nomi necha asrlar davomida lotin-yunon tilida berilgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Lotin tili xalqaro tibbiyot tili deb tan olingan. Bu esa tibbiy olimlarning hamkorlikda ishlashlariga yanada yordamlashadi. Juda qadim zamonlarda hozirgi Italiya hududidagi Appenin yarim orolida Latsiya viloyati bo‘lib, u yerda lotin qabilasi yashagan. Bosib olingan yerlarda yashovchi qabilalarni o‘z tilini, ya’ni lotin tilini davlat tili deb qabul qilishga majbur qilgan. Lotinlarning poytaxti Rum shahri bo‘lgan. Rum davlati Yunonistonni bosib olganda bu yerda madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan bo‘lib, u Rum davlati xalqlari madaniyatida o‘z aksini topgan. Buni tibbiyotning davolashga doir atamalarida yaqqol ko‘rish mumkin. Keyinchalik, eramizning beshinchi asrlariga kelib, Rum davlati inqirozga uchradi va uning o‘rniga hozirgi Fransiya, Ispaniya, Yunoniston, Misr, Italiya va shunga o‘xshash boshqa davlatlar yuzaga keldi. Ilk bor tibbiyatamalar yig‘masini ramizdan oldingi beshinchi asrda yashagan tibbiy alloma Buqrot (Gippokrat) yozgan. Ko‘p olimlar o‘zlarining ilmiy ishlarini lotin tilida yozib, ilmiy darajalarni himoya qilishgan. Yevropa mamlakatlarida XVIII asrgacha lotin tili fanda va ma’muriy ishlarda ishlatilib kelingan. Ayni paytda tibbiyot, tarix, huquqshunoslik, filologiya va biologiya fanlari sohasida lotin tilidan keng foydalaniladi. Bu, ayniqsa, tibbiyotda aniq ko‘zga tashlanadi, chunki anatomik va davolashga oid atamalar hamda dorilarning nomi lotin tilidadir. Retsept varaqasida hamisha dori nomlari va dorixona xodimiga shifokor tomonidan dori tayyorlash haqidagi ko‘rsatmalar lotin tilida yoziladi.

LOTIN TILI ALIFBOSI. TOVUSHLAR TASNIFI

Lotin tili alifbosida 25 ta harf bor. Lotin tilida tovushlar talaffuz etilishiga ko‘ra unli (vocales) va undosh (consonantes) tovushlarga bo‘linadi: a, e, i, o, u, y tovushlari unli b, c, d, f, g, h, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z tovushlari undosh tovushlar hisoblanadi.

Lotin alifbosi 25 harfdan iborat:

<i>Yozilishi</i>	<i>Nomi</i>	<i>O'qilishi</i>
A a	a	a
B b	be	b
C c	tse	ts / k
D d	de	d
E e	e	e
F f	ef	f
G g	ge	g
H h	ga	h
I i	i	i
J j	yot	y
K k	ka	k
L l	el	l
M m	em	m
N n	en	n
O o	o	o
P p	pe	p
Q q	ku	k
R r	er	r
S s	es	s / z
T t	te	t
U u	u	u
V v	ve	v
X x	iks	ks
Y y	ipsilon (igrek)	i
Z z	zeta	z

UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZI

«A, a» unli tovushi o‘zbek tilidagi «A» unli tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: amarus (amarus) — achchiq, albus (albus) — oq, abdomen (abdomen) — qorin.

«E, e» unli tovushi o‘zbek tilidagi «E» unli tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: pes (pes) — oyoq, elasticus (elastikus) — qayishqoq, bukiluvchan, derma (derma) — teri.

«I, i» unli tovushi o‘zbek tilidagi «I» unli tovushidek talaffuz qilinadi.
Masalan: internus (internus) — ichki, intestinum (intestinum) — ichak.

«O, o» unli tovushi o‘zbek tilidagi «O» unli tovushidek talaffuz qilinadi.
Masalan: organum (organum) — a‘zo, lobus (lobus) — bo‘lak, oculus (okulus)—
ko‘z.

«U, u» unli tovushi o‘zbek tilidagi «U» tovushidek talaffuz
qilinadi. Masalan: uterus (uterus) — bachadon, ulcus (ulkus) —yara, urina
(urina)— siydik.

«Y, y» unli tovushlar o‘zbek tilidagi «I» unli tovushidek talaffuz qilinadi.
Masalan: symptoma (simptoma) — belgi, alomat, amygdala (amigdala) — bodom,
Gossypium (gossipium) — paxta.

UNDOSH TOVUSHLAR TALAFFUZI

«C, c» harfi ikki xil o‘qiladi:

e, i, y — unli harflari va ae, oe diftonglari oldida (s) deb o‘qiladi.

Masalan: cerebrum (serebrum) — miya, cystis (sistis) — pufak, cito (sito)
— tez, caecum (sekum) — ko‘richak, coelia (seliya) —qorin bo‘shlig‘i. Boshqa
hollarda, ya‘ni a, o, u — unlilari oldida, undoshlar oldida va so‘z oxirida kelsa c
harfi (k) deb o‘qiladi. Masalan: caput (kaput) — bosh, costa (kosta) — qovurg‘a,
cuprum (kuprum) —mis, lac (lak) — sut, medicus (medikus) — shifokor, do‘xtir.

H, h — o‘zbekcha (h) harfi kabi talaffuz qilinadi: herba (herba) — o‘t (bot.)
humanus (humanus) — odamiylik, hepar (hepar) —jigar, haema (hema) — qon.

K, k — harfi tibbiy lotin tilida kam qo‘llaniladi, faqatgina yunon va arab
tilidan kirib kelgan atamalarda uchraydi: Kalium (kalium) — kaliy, keratoma
(keratoma) — shoxsimon o‘sma.

L, l — harfi yumshoq talaffuz qilinadi. mel(mel)—asal, luna(luna)

— oy, labium (labium) — lab.

S, s —harfi ikki unli yoki har qanday bir unli bilan m,n undosh harflari
o‘rtasida (z) harfidek, boshqa hollarda esa (s) deb o‘qiladi: Rosa (roza) — atirgul,
vaselinum (vazelinum) — vazelin, neoplasma (neoplazma) — neoplazma, scabies
(skabies) —qichima, mensis (menzis) — oy.

X, x — harfi ikki unli oʻrtasida kelsa (gz) deb oʻqiladi, qolgan holarda (ks) yoki (gs) deb talaffuz qilinadi: apex (apeks) — uch yoki bosh qism, exitus (egzitus)—natija, lex (legs)—qonun, radix (radiks)—ildiz.

Z, z —harfi yunon va boshqa tillardan oʻzlashtirilgan atamalarda (z) deb oʻqiladi: zone (zona) — zona, zygoma (zigoma) — yuz (yonoq) suyagi, zonula (zonula) — kamarcha. Lekin Zincum (sinkum) — rux va influenza (influenta) — yuqori nafas yoʻllarining oʻtkir katari atamalaridagina z — harfi (s) deb talaffuz qilinadi.

UNLI «Y» HARFINING TIBBIY ATAMALARDA QOʻLLANILISHI

Unli «Y» harfi yunon tilidan oʻzlashtirilgan atamalarda uchraydi. «Y» unlisi old qoʻshimchalarda, oʻzak va qoʻshimchalarda uchrashi mumkin. Buning uchun quyidagi old qoʻshimcha, oʻzak va qoʻshimchalarni esda saqlash kifoya:

oxy- hydr hyper- pyo hypo- pyr glyc- syn yl- myc dys- myo oxy — taxir; oxygenium — kislorod ;hyper — yuqori, koʻproq; hypertonia — qon bosimining koʻtarilishi glyc — shirin; Glycyrrhiza — shirinmiya yl — modda; amyllum — ohor hypo — past, kamroq; hypotonia — qon bosimining pasayishi hydr — suv; Hydrogenium — vodorod pyo — yiring; pyorrhoea — yiring oqishi myo — mushak; myocardium — yurak mushagi pyr — issiqlik; Antipyrinum — issiqni pasaytiruvchi dori myc — qoʻziqorin; Biomycinum — biomitsin dys — kasallik holati yoki aʼzo faoliyatining buzilishi; dysuria — qovuqdan siydik chiqishining qiyinlashuvi syn (sym)— ulash; symphysis — qoʻshilish

Mavzuga oid savollar.

1. Lotin alifbosini yoddan aytib bering.
2. Qaysi harflar (i) tovushidek talaffuz qilinadi?
3. C harfi qaysi hollarda (ts) va (K) deb oʻqiladi?
4. S harfi qaysi hollarda (S) va (Z) deb oʻqiladi?
5. X va Z harflarining oʻqilish qoidasini aytib bering.

Mustaqil oʻrganish uchun.

Lotin maqollari va hikmatli soʻzlar.

Non scholae, sed vitae discimus.

Biz maktab uchun emas, hayot uchun o‘qiyamiz.

In via est in medicina via sine lingua latina Lotin tilisiz tibbiyotga yo‘l yo‘q.

Radix litterarum amarae sunt, fructus dulces

Ilmning ildizi achchiq, mevasi esa shirin.

Mashqlarni bajaring.

1-mashq. O‘qing. Unli harflarning o‘qilish qoidasiga rioya qiling.

Amarus, Valeriana, emulsum, tabuleta, pasta, gaster, rubor, organum, linimentum, mastitis, costalis, bacterium, ventriculus, optimus, morbus, internus, tuberculum, sepsis, duodenum oculus, hepatitis, medicamentum, ureter, elasticus, abdomen, vertebra, uterus, vagina, vena, sutura, scapula, papilla, medulla, urina, arteria, Kalium, lobulus, decoctum, Amygdala, spiritus.

2-mashq. Undosh harflarning o‘qilishiga e’tibor bering.

Activatus, leukaemia, Haematogenum, occipitalis, contagiosus, nasalis, bacteriaemia, costalis, roentgenum, suppositorium, conjunctivus, sternum, gargarisma, spirituosus, paralysis, densitas, auris, laryngitis, symptoma, Magnesia, auscultare, Crataegus, apnoë, hyperaemia, gangraena, paediatra, haemostaticus, oestrogenus, aestimare, vaccinum, officinalis, pancreas, Amidopyrinum, cellula, hygienae, cera, cito, statim, praeparatum, prognosis, medicamentum, diagnosis.

3-mashq. Quyidagi atamalarda C harfining (ts) tovushidek o‘qilishini tushuntiring.

Canalis, cerebrum, costa, occipitalis, conjunctivus, Crataegus, collum, cranium, cytus, ductus, processus, tuberculum, rectum, facies, tinctura, caecum, cella, calvaria, decoctum, cerebellum, causticus, ventriculus, medicinalis, columna, scapula.

“K” deb o‘qiladigan so‘zlar	“ts” o‘qiladigan	“K” va “ts”

4-mashq. Quyidagi atamalarda C harfining (K) tovushidek o‘qilishini tushuntiring.

Abducens, abductor, acidum, acetum, bacca, bacterium, cancer, cartilago, cutis, cystis, elasticus, fascia, fructus, hepaticus, jecur, lac, medicamentum, mucilago, narcosis, oculus, pancreas, rectalis, scabies, succus, tuberculum, Urtica, vaccinum.

“K” deb o‘qiladigan so‘zlar	“ts” o‘qiladigan	“K” va “ts”

5-mashq. Quyidagi tibbiy atamalarni o‘qing va S harfining (Z) tovushdek talaffuz qilinishini tushuntiring.

Abdominalis, Anisum, amarus, amnesia, bacillus, blastoma, calcaneus, cardiacus, cutis, cystis, dosis, narcosis, naturalis, nasus, obductus, otitis, optimus, spasmus, tabes, usus, vaselinum, vesica, virus.

“Z” deb o‘qiladigan so‘zlar	“s” o‘qiladigan	“Z” va “s”

6-mashq. Tibbiy atamalarni o‘qing va S harfining (S) tovushidek o‘qilishini tushuntirib bering.

Auris, abducens, compositus, dens, dentalis depuratus, dilutus, destillatus, durus, dysuria, dysenteria, emulsum, fissura, fibrosus, genus, hydrops, incisura, intestinum, internus, lobus, mastitis, mollis, morbus, neurosis, ostium, paries, percussio, Ricinus, Rosa, siccus, sternum, succus, species, tonsilla, ulcus, vaginalis, vomicus.

“Z” deb o‘qiladigan so‘zlar	“s” o‘qiladigan	“Z” va “s”

7-mashq. Quyidagi tibbiy atamalarni o‘qing, x va z harflarining o‘qilishiga e’tibor bering.

Zona, exoderma, exoplasma, xeroformium, eczema, extractum, larynx, zygoma, dexter, mixtura, Zincum, Taraxacum, radix, influenza, cortex, maxilla, externus, zygomatikus, zonula, Oryza.

8-mashq. Quyidagi tibbiy atamalarni o‘qing.

Antipyrinum, butyrum, cystis, dysenteria, dystrophia, hydrops, hypnoticus, mycosis, myotonia, larynx, lympho, hypertonia, lymphaticus, hypotonia, myoma, myalgia, physiologia, polyvitaminum, dystrophia, Glycyrrhiza, cytologia, dyspepsia, amylaceus, erythrocytus, pyocytus, Glycerinum, erythromycinum, Glycosidum, Gossypium, hydroxydum, Hyoscyamus, hyperaemia, hypothermia, Ichthyolum, Hydrargyrum, Helichrysum, gypsum.

Testni yeching:

1. Lotin tili alifbosida nechta harf bor?
A)25ta B)27ta D)26ta
2. Unli harflar berilgan qatorni aniqlang?
A) A, E, I, O, M, Z B)A, E, I, O, M, Y, D)A, E, I, O, Y
3. Lotin tilida undosh harflar nima deb taladi?
A)vocalu B)consonants D)lobus
4. Undosh harflar berilgan qatorni toping?
A)B, D, F, G, Y B)B, N, Q, R, S, A D)B, P, Q, R, S
5. Lotin tilida undosh harflar nima deb ataladi?
A)vocalis B)consonantes D)lobus
6. “Internus” so‘zini ma‘nosi?
A)ichki B)ichak D)ko‘z
7. Belgi, alomat so‘zining lotincha tarjimasi?
A)gossypium B)amygdola D)symptom
8. “ C ” harfi “ K “ deb o‘qiladigan so‘zlar qatorini toping?
A)cito B)lac D)cera

9. Cranium, tibia so`zlarini ma`nosi?

- A) bosh, bo`yin B) bosh, boldir D) soch, bosh

10. Syn, symphysis so`zlarining manosi?

- A) suv, vodorod B) qo`ziqorin D) ulash, qo`shilish

11. C harfi "K" deb o`qiladigan so`zlar qatorini toping?

- A) cutis, jecur, lac B) cistis, fructus D) cancer, cito

12. Javoblarning qaysi birida "ngu" harf birikmasi uchraydi?


- A) angulus B) unguentum D) aqua

13. Qaysi qatorda "C" harfi "ts" tovushdek o`qiladi?

- A) bacca B) occipitalis D) crista

14. . Qaysi harf lotin tilida kam qo`llaniladi?

- A) K B) L D) Q



1.1-rasm. Odam tanasining lotin tilida nomlanishi.

2 - MAVZU. Diftong va digraflar. Xarf birikmalari.

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. Diftonglar.
2. Harf birikmalari.
3. Digraflar haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1. Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

4. O'quv – uslubiy majmua

5. Mavzuga oid PPT.

6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni so'rash;

2. Yangi mavzu bayoni;

3. Mashqlar bajarish;

4. Mustaxkamlash;

5. Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

DIFTONGLAR

Bir tovushni ifodalovchi ikki unli harf birikmasi diftong deb ataladi. Lotin tilida, asosan, toʻrtta diftong bor:

«ae» unli harflari birikmasi oʻzbekcha «e» deb oʻqiladi. Masalan, aegrotus (egrotus) — bemor, gangraena (gangrena) — tirik toʻqimalarning oʻlishi, Laevomycesinum (levomitsetinum) — levomitsetin.

«oe» unli harflari birikmasi oʻzbekcha «e» deb oʻqiladi. Masalan, oedema (edema) — shish, Foeniculum (fenikulum) — shivit.

«au» unli harflari birikmasi (au) dagi (u) harfi qisqa oʻqiladi. Masalan: Aurum (aurum) — oltin, trauma (trauma) — shikastlanish.

«eu» unli harflar birikmasi (eu) dagi (u) harfi qisqa oʻqiladi. Masalan, neuralgia (neuralgiya) — asab kasalligi, pneumonia (pneumoniya) — oʻpkaning yalligʻlanishi. Leukomycesinum (leukomitsin) — leykomitsin.

«ai» unli harflar birikmasi lotin tilida «ai» deb talaffuz qilinadi. Masalan, Daimeton (daimeton) — daimeton, Dikcainum (dikaynum) — dikain, Naucain (naukain) — novokain.

«ei» unli harflar birikmasi lotin tilida «ei» deb talaffuz qilinadi. Masalan, Luteine (luteine) — lutein.

«ou» unli harflar birikmasi oʻzbekcha «u» deb oʻqiladi. Masalan, croup (krup) — hiqildoqning oʻtkir yalligʻlanishi.

Baʼzi vaqtlarda qator kelgan ikki unli harf birikmasi diftong hosil qilmaydi, u holda ikkinchi unli harfning ustiga ikki nuqta qoʻyiladi va unlilar ayrim-ayrim oʻqiladi. Masalan: aër (aer) — havo, Aërosolum (aerozolum) — aerzol, Aloë (aloe) — sabur, dyspnoë (dispnoe) — nafas qisishi.

HARF BIRIKMALARI VA QOʻSH UNDOSHLARNING OʻQILISH XUSUSIYATLARI

q — harfi doimo «u» harfi bilan birgalikda kelib, unli harf oldidan kelganda (KV) deb talaffuz qilinadi: aqua (akva) — suv, quinque (kvinkve) — besh, quadriceps (kvadritseps) — toʻrt boshli.

ngu — harflar birikmasi unli oldida kelganda (ngv), boshqa hollarda esa (ngu) deb o‘qiladi: Lingua (lingva) — til, unguentum (unguentum) — surtma, angulus (angulus) — burchak.

su — harf birikmasi a, e unli harflari oldida kelsa (sv), boshqa hollarda (su) deb o‘qiladi: Suavis (svavis) — yoqimli, consuetudo (konsvetudo) — odat, Suinsulinum (suinsulinum) — suinsulin.

ti — harf birikmasi unlilar oldida kelganda (si) deb o‘qiladi, lekin s, x undoshlaridan keyin kelganda esa (ti) deb talaffuz qilinadi: Articulatio (artikulatsio) — bo‘g‘in, solutio (solutio) — eritma, ostium (ostium) — teshik, mixtio (mikstio) — aralashish.

Quyidagi harf birikmalarini yunon tilidan o‘zlashtirilgan atamalarda uchratish mumkin.

ch — harflari birikmasi (x) deb talaffuz qilinadi: Chirurgus (xirurgus) — jarroh, Chamomilla (xamomilla) — moychechak.

ph — harflar birikmasi (F) deb o‘qiladi: Diaphoreticus (diaforetikus) — terlatuvchi, Phosphorus (fosforus) — fosfor.

th — harflari birikmasi (t) deb o‘qiladi: Mentha (menta) — yalpiz, thermometrum (termometrum) — harorat o‘lchagich.

rh — harf birikmasi (R) deb o‘qiladi: Rheum (reum) — rovoch, rhaps (rafe) — chok chizig‘i.

sch — harflar birikmasi (sx) deb o‘qiladi: Schizandra (sxizandra) — limono‘t, ischium (isxium) — dumba suyagi.

Mavzuga oid savollar.

1. Qanday diftonglarni bilasiz?
2. Ae, oe, au, eu harf birikmalari qanday o‘qiladi?
3. Ai, ei, ou harf birikmalari qanday talaffuz qilinadi?
4. Qu va ngu harf birikmalari qanday o‘qiladi?
5. Ti va su harf birikmalari qanday o‘qiladi?
6. Sch, ch, ph, th va rh harf birikmalari qanday o‘qiladi?

Mashqlarni bajaring.

9-mashq. Transkripsiya ko'rinishida yozing. Diftong va unli harflarning talaffuz qilinishiga e'tibor bering.

Praeparatum, diaeta, apnoë, anaemia, paediatr, haema, oedema, gangraena, haematogenum, aurum, pneumonia, Aloë, Aminocaine, Daimeton, Intercain, Luteine, Foeniculum, Crataegus, roentgenum, aurum, bacteriaemia, oestrogenus, haemostaticus, aër, hyperaemia, trauma, leukaemia, croup, dyspnoë, Novocainum.

10-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va tibbiy termin shaklida yozing.

[Valeriana], [preparatum], [spiritus], [apnoe], [planta], [dieta], [aurum], [emulsom] [medulla], [skapula], [anemia], [hema], [pediter], [dekoktum], [tabuletta], [kaput], [okulus], [auris], [oris], [trunkus], [kollum], [manus], [duktus], [mamma], [dorsum], [pektus], [umbilikus], [gluteus], [anus], [penis], [vagina], [testis], [pes], [edema], [pasta], [gangrena], [gaster], [hematogenum], [Aloë], [pneumonia], [fenikulum], [rentgenum], [linimentum], [morbus], [Kratagus], [bakteriemia], [morbus], [estrogenus], [duodenum], [hemostatikus], [medikamentum], [trauma], [elastikus], [urina], [leukemia], [abdomen].

11-mashq. Yozing. Diftonglar va unli harflarning talaffuz qilinishiga e'tibor bering.

Aceteinum, Aminocaine, anaemia, amarus, auris, bacca, bacterium, Cysteinum, caecum, cito, cutis, Daimeton, dens, decoctum, emulsum, faex, gaster, haema, Herocaine, internus, intercain, Juniperus, Laevomycetinum, lobulus, Luteine, Leukomycin, Kalium, medulla, nasus, Neurotinum, oedema, Novocainum, papilla, Procaine, rubor, scabies, scapula, Syntocainum, sutura, succus, tabuletta, tuberculum, ureter, uterus, vagina, vertebra, vena.

12-mashq. Quyidagi anatomik atamalarni o'qing va tarjima qiling.

a). Cranium –	clavicula -	phalanx -
maxilla –	scapula -	patella -
mandibular –	thorax -	fibula -
dens -	costa -	tibia -
vertebra-	sternum -	tarsus -

columna –	humerus -	corpus -
ulna -	radius -	metatarsus -
femur -	carpus	metacarpus -

b). Lingua-	, pharynx -	, larynx -	, trachea -
oesophagus -	, cor -	, pulmo -	, lien -
diaphragm-	, hepar-	, ventriculus -	vesica-
duodenum-	, ovarium-	, testis-	, pancreas-
, uterus-	, colon-	, intestinum-	, processus-

13-mashq. Quyidagi farmakologik atamalarni o‘qing va tarjima qiling.

a). Tabuletta-	, pilula-	, dragee-	,
pulvis-	, unguentum-	, tincture-	
, linimentum-	suppositorium-	, emplastrum -	,
mixture -	oleum-	, solution-	,
extractum-	, decoctum-	, infusum-	
, emulsum-	suspension-	, mucilage-	
, aërosolum-			

b). Herba, folium, flos, bacca, semen, stigma fructus, tuber, radix, rhizoma, cortex, secale cornutum.()

14-mashq. Atamalarni o‘qing va harf birikmalarining talaffuziga e’tibor bering.


Althaea, aether, bronchus, camphora, chirurgus, bronchialis, Morphinum, encephalon, Hippophaë, Kalanchoë, kephalargia, metaphysis, nephritis, phlegmone, phystiotherapia, physiologia, thorax, xerophagia, Ichthyolum, Rheum, phalanx, rheumatismus, saccharum, rhaphe, erythema, therapia, diaphoreticus, Phosphorus, Mentha, concha, cirrhosis, Helianthus, Phenolum, Chamomilla, Schizandra, diaphragma, Ephedra, lethargia, cholecystopathia, Strophanthus, pharmacologia, chronicus, Glycyrrhiza, terebinthina.

15-mashq. Quyidagi atamalarni yozing va ti, qu, ngu, su harf birikmalari talaffuziga e'tibor bering.

Angulus, pinguis, essentia, lingua, suasor, articulatio, costio, operatio, equisetum, Sanguisorba, unguentum, Liquiritia, unguis, aqua, quadriceps, suavis, Suinsulinum, ostium, mixtio, longus, aequalis, Quersus, liquor, squama, combustio, injectio, substantia, solutio, liquor, sublingualis.

Testni yeching:

1. Bir tovushni ifodalovchi unli harf birikmasi nima deb ataladi?
A) diftong B) harf birikma D) unli harf
2. Lotin tilida asosan nechta diftong bor?
A) 5 ta B) 6 ta D) 4 ta
3. Gangrena, Levomyctinum soʻzlarida qanday diftonglar qoʻllaniladi?
A) ae, oe B) ae, ae D) au, ei
4. “ Ou “ Diftongi qoʻllangan soʻzlar qatorini toping?
A) Aloe B) Croup D) Novocain
5. Luteine, Dikain soʻzlarida qanday diftonglar qoʻllaniladi?
A) ai, ei B) ou, ei D) ai, eu
6. Aurum, trauma soʻzida qanday diftonglar qoʻllaniladi?
A) ei B) ai D) au
7. Ae diftongi qoʻllanilgan soʻzlar qatorini toping?
A) aegrotus B) oedema D) aurum
8. Luteine soʻzining maʼnosi?
A) lutein B) dikain D) aurum
9. Diftonglar berilgan qatorni aniqlang?
A) ae, oe, au B) ei, ou, ch D) ei, ou, su
10. Diftong talaffuz qilinmaydigan soʻzlar qatori.
A) oedema B) scabies D) aër



1.2-rasm. Odam tanasining lotin tilida nomlanishi.

3 - Mavzu: Urg'u. Urg'u qo'yish qoidalari.

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. So'zlarni bo'g'inlarga bo'linishi.
2. Bo'g'inning cho'ziq bo'lishi.
3. Bo'g'inning qisqa bo'lishi.
4. Urg'u qo'yish qoidalari haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1. Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

4. O'quv – uslubiy majmua
5. Mavzuga oid PPT.
6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni so'rash;
2. Yangi mavzu bayoni;
3. Mashqlar bajarish;
4. Mustaxkamlash;
5. Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

SO‘ZLARNING BO‘G‘INLARGA BO‘LINISHI

Lotin tilida o‘zbek tilidagidek so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi va so‘zda necha unli harf bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi. Masalan: Com-po-si-tus, de-pu-ra-tus, mas-ti-tis. Tovushlar cho‘ziq va qisqa talaffuz qilinadi. Tovushning cho‘ziqligini belgilash uchun harf ustiga to‘g‘ri chiziqcha, qisqaligini belgilash uchun yoysimon chiziqcha

—o o-o-o-o-o

qo‘yiladi: a a, o o, n i, u u, e e, y y.

Tovush va bo‘g‘inlarning cho‘ziq yoki qisqaligini aniqlash uchun harf ustiga urg‘u belgisini (/) qo‘yish kerak.

BO‘G‘INLARNING CHO‘ZIQ VA QISQALIK QOIDALARI

1. Cho‘ziqlik qoidasi

1. Agar bo‘g‘inda diftong bo‘lsa, o‘sha bo‘g‘in cho‘ziq talaffuz qilinadi. Masalan; Gangraena — to‘qimalarning o‘lishi; diaeta —parhez; lagoena — shisha idish.

2. Agar unli harf ikki va undan ortiq undosh harflar yoki x va z undoshlari oldida kelsa, shu bo‘g‘in cho‘ziq o‘qiladi. Masalan:Maxilla — yuqori jag‘; tabuletta — tabletka; unguentum —surtma; Glycyrrhiza — qizilmiya; reflexus — refleks.

3. Agar bo‘g‘inda ur, in, at, ut, ar, al, os qo‘shimchalari bo‘lsa, bu bo‘g‘inlar cho‘ziq o‘qiladi. Masalan: Fissura — tirqish;Analginum — analgin; nitratis — nitrat, acutus — o‘tkir; aquosus — suvli; muscularis — mushakli; costalis — qovurg‘aga oid.

2. Qisqalik qoidasi

1. Agar unli harf unli harf oldida kelsa, o‘sha bo‘g‘in qisqa o‘qiladi. Masalan: Oleum — moy; labium — lab; folium — barg.

2. Agar unli harf bl, br, cl, cr, dl, dr, pl, pr, tl, tr harf birikmalari oldida kelsa, shu unli qisqa talaffuz qilinadi; Vertebra — umurtqa;cerebrum — bosh miya; cicatrix — chandiq; palpebra — qovoq.

3. Agar unli harf ch, th, ph, rh, qu harf birikmalari oldida kelsa, qisqa o'qiladi: Stomachus — oshqozon; reliquus — qoldiq; Amaphos — amafos; choledochus — o't (safro)ga oid.

4. Agar bo'g'inda ul, ol, ib, il, id harf birikmalari bo'lsa, bo'g'in qisqa o'qiladi: Injectabilis — igna orqali dori yuborishga taalluqli; gracilis — nafis; solubilis — eruvchan; fluidus — suyuq.

5. ia qo'shimchasiga ega bo'lgan ayrim yunon atamalarida urg'u i harfiga tushadi: Dysenteria — ichburug'; anaemia — kamqonlik; therapia — davolash; hypertonia — qon bosimining ko'tarilishi.

URG'U.

O'zbek tilida urg'u odatda ko'pincha so'zning oxirigi bo'g'inidagi unli tovushga tushadi. Masalan: jigar, yurak. Lotin tilida esa urg'u so'zning oxiridan ikkinchi yoki uchinchi bo'g'indagi unli tovushga tushadi.

1. Lotin tilida urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmaydi.

2. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u hamisha so'zning ikkinchi bo'g'iniga tushadi: Costa — qovurg'a; caput — bosh.

3. Agar so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'ini cho'ziq bo'lsa, urg'u o'sha bo'g'inning unli tovushiga tushadi: Medicina — tibbiyot; tinctura — spirtli eritma; destillatus — tozalangan; solutus — eritilgan.

4. Agar so'zning ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa, urg'u so'zning oxiridan uchinchi bo'g'inidagi unli tovushga tushadi: Medicus — shifokor; pilula — hab dori; cranium — bosh suyagi.

Mavzuga oid savollar.

1. Urg'u qoidasini aytib bering.

2. Bo'g'inlarning cho'ziqlik qoidasini bayon eting.

3. Bo'g'inlarning qisqalik qoidasini aytib bering.

4. Tibbiy atamalarda urg'u qaysi bo'g'inlarga qo'yiladi?

5. Unli tovush qachon cho'ziq o'qiladi?

6. Unli tovush qachon qisqa o'qiladi?

Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Omne principium diffecile est-Har bir ish boshlanishidagina qiyin.Qui scribit, bis legit

Yozmoq, ikki qayta o'qimoqdir - Alit lectio ingenium. O'qish aqlni peshlaydi.

16-mashq. Urg'u qoidasiga rioya qilgan holda quyidagi tibbiy atamalarni yozing.

Ligamentum, extractum, vertebra, complexus, Glucyrrhiza,cerebrum, cranium, pilula, pneumonia, cella, musculus, acidum,femur, pectoralis, clavicula, medicatus, therapia, scabies,palpebra, oleum, butyrum, dystonia, fractura, anaemia, aethereus,tuberculum, folium, solutio, decoctum, tinctura, depuratus,signatura, operatio,costa,caput.

I. Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qing:

costa - qovurg'a; apex - uch;arcus - yoy; bursa - halta; bulbus - piyozbosh; cauda - dum; barba - soqol; cavum – bo'shliq; minor - kichikroq; cornu - muguz; situs - holat; ramus - shox; collum – bo'yin; manus – qo'l; vomer – dimog'; sternum - to'sh suyagi; atlas - I bo'yin umurtqasi; sella - egar.

II. So'z oxiridan ikkinchi bo'g'inning cho'ziq yoki qisqaligini aniqlab, urg'u qo'ying:

medulla ossium - suyak iligi; membrum inferius - quyi mucha; epigastrium – qorin usti; substantia compacta - zich modda; ligamentum - boylam; processus transversus – ko'ndalang o'simta; corpus maxillae - yuqori jag' tanasi; ductus choledochus – o't yo'li; facies poplitea - taqim yuzasi; quadruplex – to'rt karra; palpebra superior - yuqori qovoq; periosteum - suyak usti pardasi; arcus vertebrae - umurtqa ravog'i.

III. Suffikslar cho'ziq yoki qisqaligini hisobga olib, urg'u qo'ying:

hiatus sacralis – dumg'aza tirqishi; incisura vertebralis - umurtqa o'ymasi, clavicularis – o'mrovga oid; mentalis - engakka oid; sulcus pulmonalis – o'pka

egati; foramen spinosum – o'tkir qirrali teshik; fossa glandulae lacrimalis – ko'z yoshi bezi chuquri; processus zygomaticus - yonoq o'simtasi; incisura supraorbitalis – ko'z kosasi usti o'ymasi; pars squamosa - tangasimon qism; nodi pancreatici – me'da osti bezi (limfatik) tuguni; pelvinus - chanoqqa oid; pubicus - qovga oid; foveolae granulares - donador chuqurchalar; glomerulus - koptokcha; geniculum - tizzacha; hamulus pterygoideus - qanotsimon ilmoqcha; fossa pterygopalatina - qanot-tanglay chuquri; digitatus - barmoqsimon; cribrosus - g'alvirsimon.

IV. Zaruriy holatlarda lug'atga murojaat qilgan holda urg'u qo'ying:

alae vomeris – dimog' suyagi qanotlari; gingiva - milk; trachea - kekirdak; osteologia - osteologiya; myologia - miologiya; pars superior duodeni – o'n ikki barmoq ichak yuqori qismi; glossopharyngeus - til-halqumga oid; orbita oculi - ko'z kosasi; peroneus - kichik boldirga oid; carpeus – qo'lning kaft usti qismiga oid; articulatio sacrococcygea – dumg'aza-dum bo'g'imi; cartilagineus – tog'ayga oid; organon gustus – ta'm a'zosi; gluteus - dumbaga oid; pylorus - pilorus; peritoneum - qorin parda; metathalamus - metatalamus (ko'ruv bo'rtig'i ortidagi miya qismi); minimus - eng kichik; musculus levator fornicis – gumbazni ko'taruvchi mushak; os coccygis - dum suyagi; apertura thoracis inferior - ko'krak qafasi pastki tuynugi; nervus trigeminus - uch shoxli asab tolasi; labyrinthus ethmoidalis - g'alvirsimon labirint.

Testni yeching:

1. Urg'u to'g'ri qo'yilgan so'zlarni toping?

A)capu't B)tinc`tura D)pi`lula

2. "S" harfi "Z" deb o`qiladigan qatorni toping?

A)auris, hydrops B)costa, mastitis D)Neoplasma

3. Tovush bo'g'inlarining cho'ziq va qisqaligini aniqlash uchun harf ustida qanday belgilar quyiladi?

A) Urg'u belgisi (´) B) nuqta belgisi (.) D) qo'shtirnoq belgisi (")

4. Agar bo'g'inda diftong bo'lsa o'sha bo'g'in qanday talaffuz qilinadi,
A)Qisqa B) cho'ziq D) talaffuz qilinmaydi
5. Cho'ziq talaffuz qilinadigan diftonlarga misol?
A) aegrotus B) laubium D) diaeta
4. Agar unli harf ikki va undan ortiq undosh harflar yoki x va z undoshlari oldida kelsa shu bo'g'in qanday o'qiladi ?
A)Cho'ziq B) qisqa D) talaffuz qilinmaydi
5. Agar bo'g'inda qaysi qo'shimchalar bo'lsa bu bo'gin chozib o'qiladi.,
A)–ul, -ol, -al, -id B) –ur, -in, -it, -ib D) –ur, -in, -at, -ut, -ar, -al
6. Maxilla so'zining tarjimasi?
A) Pastki jag` B) Yuqori jag` D) Tanglay
7. Unguentum so'zini tarjimasi?
A)Surtma B)Jag` D)Moy
8. Tovushning cho'ziqligini belgilash uchun harf ustiga qanday chiziqcha qo'yiladi?
A)Yoysimon B)To'g'ri chiziqcha D)vertikal
9. Tovushning qisqaligini belgilash uchun qanday chiziqcha qo'yiladi?
A)To'g'ri B)vertical D)Yoysimon
10. Og'riq qoldiruvchi so'zining lotincha nomi.
A)Costalis B) Doloris D)Analginum
11. Fissura so'zining tarjimasi.
A)Tirqish B)O'tkir D)Suvli
12. Agar unli harf, unli harf oldida kelsa qanday o'qiladi?
A)Qisqa B)Cho'ziq D)Oddiy tarzda o'qiladi
13. Agar unli harf qanday, harf birikmalari oldidakelsa o'sha unli qisqa talaffuz qilinadi.
A) bl, br, cl, cr, dl, dr, pl, pr B) ur, in,at,ut D) au, eu,x,z
14. Umurtqa so'zining lotincha nomi?
A)Vertebra B)Cerebrum D)Palpebra

15. Qovoq soʻzining lotincha nomi?

A)Vertebra B)Cerebrum D)Palpebra

16. Oʻzbek tilida urgʻu soʻzning qaysi bogʻinida unli tovushga tushadi ?

A)Oʻrtasida B)Oxiridan bitta oldinga D)Oxiriga

17.- ia qoʻshimchasiga ega bolgan ayrim yunon atamalarida urgʻu qaysi harfiga tushadi?

A) i harfiga B) a harfiga D)ia harfiga

18. Lotin tilida urgʻu soʻzning qayeriga tushadi?

A)Soʻzninh oxiriga B)Soʻzning boshiga

D)Oxiridan 2-yoki 3- boʻgʻindagi unli tovushga

19. Ikki boʻgʻinli soʻzlarda urgʻuni qayeriga qoʻyiladi?

A)Soʻzning ikkinchi boʻgʻiniga B)Oxiriga D)Boshiga

20. Ikki boʻgʻinli soʻzlarga misol?

A)Costa ,caput B)Pilula ,caput D)Cranium ,costa

21. Agar soʻzning oxiridan 2-boʻgʻini choʻziq boʻlsa urgʻu qayeriga tushadi?

A)Oʻsha boʻgʻinning unli tovushiga B)Boshiga D)Oxiriga

4-mavzu: Ot, turlanishlar.

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. Ot Grammatik kategoriyasi.
2. Rod,son, kelishiklar.
3. Turlanishlar.
4. Ot negizini toppish haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1.Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

4.O'quv – uslubiy majmua

5. Mavzuga oid PPT.

6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1.O'tilgan mavzuni so'rash;

2.Yangi mavzu bayoni;

3.Mashqlar bajarish;

4.Mustaxkamlash;

5.Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

Otning grammatik kategoriyalari, V xil turlanish belgilari, -um, -on, -a, -us, -en, -urod belgilari, otning 5 xil turlanish lugʻat shakli leksik minimumni bilib olish. Anatomik termintuzilishi va termini tashkil etuvchi soʻzning grammatik shakllarini aniqlashni; otning turlanishini aniqlashni; otning I, II, IV va V turlanish hamda rod negizini aniqlashni; -um, -on, -a, -us, -u, -en otlarining lugʻat shaklini tuzishni; terminlarni lotin tilidan oʻzbek tiliga va oʻzbek tilidan lotin tiliga moslashmagan aniqlovchi bilan tarjimaqila olish.

Ot (nomen substantivum). Otning grammatik kategoriyalari. Otning lugʻat shakli Lotin tilida otlar rus tilidagi kabi uchta rodga ega:

Genus masculinum (m) - mujiskoy rod

Genus femininum (f) - jenskiyrod

Genus neutrum (n) - sredniy rod

Lotin tilida otning 2 xil son shakli: birlik – numerus singularis (sing),

Koʻplik – numerus pluralis (pl) va 6 kelishik mavjud:

Nominativus (Nom.) - bosh kelishik - kim? nima?

Genetivus (Gen.) - qaratqich kelishigi - kimning? nimaning?

Dativus (Dat.) - joʻnalish kelishigi - kimga? nimaga?

Accusativus (Acc.) - tushum kelishigi - kimni? nimani?

Ablativus (Abl.) - Oʻrin payt kelishigi - kim bilan? nima bilan? kim tomonidan?

Vocativus (Voc.) - chiqish kelishigi (tibbiyot terminshunosligida uchramaydi)

Lotin tilida kelishik tugallanmalari bilan farq qiluvchi 5 turlanish mavjud.

Otning lugʻat shakli 4 tarkibiy qismdan iborat: 1) termin bosh kelishik shakli, 2) termin qaratqich kelishikdagi tugallanmasi; 3) rod belgisi; 4) maʼnosi:

costa, ae f - qovurgʻa

musculus, i m - mushak

sternum, i n - toʻsh suyagi

Otning turlanishi

NB! Otlarng turlanish turi qaratqich kelishigi birlik qo'shimchasi yordamida aniqlanadi:

costa, ae f - qovurg'a - I turl.

nervus, im - asab - II turl.

septum, in - to'siq - II turl.

olecranon, in - tirsak o'simtasi - II turl.

canalis, is m - kanal - III turl.pars, partif - qism - III turl.

foramen, inis n - teshik - III turl.

ductus, usm - ariq - IV turl.

cornu, usn - muguz - IV turl.

facies, eif - yuza - V turl.

Otning negizini aniqlash

So'zning asosiy tugallanmasiz qismi negiz deb ataladi. Negizni aniqlash uchun so'z qaratqich kelishigiga qo'yilib uning tugallanmasi olib tashlanadi.

costa, ae f - qovurg'a - I turl.

nervus, im - asab - II turl.

septum, in - to'siq - II turl.

olecranon, in - tirsak o'simtasi - II turl.

canalis, is m - kanal - III turl.pars, partif - qism - III turl.

foramen, inis n - teshik - III turl.

ductus, usm - ariq - IV turl.

cornu, usn - muguz - IV turl.

facies, eif - yuza - V turl.

Otning negizini aniqlash

So'zning asosiy tugallanmasiz qismi negiz deb ataladi. Negizni aniqlash uchun so'z qaratqich kelishigiga qo'yilib uning tugallanmasi olib tashlanadi.

<i>Turlanish</i>	<i>I</i>	<i>II</i>		<i>III</i>			<i>IV</i>		<i>V</i>
Rod	f	<i>m</i>	<i>n</i>	m	f	n	m	n	f
Nominativus singularis	a	<i>us</i> <i>er</i>	<i>um</i>	Har xil			us	u	es
Genetivus singularis	ae	<i>i</i>		is			us		ei

Otning negizini aniqlash

Soʻzning asosiy tugallanmasiz qismi *negiz* deb ataladi. Negizni aniqlash uchun soʻz qaratqich kelishigiga qoʻyilib uning tugallanmasi olib tashlanadi.

<i>Bosh kelishik</i>	<i>Qaratqich kelishik</i>	<i>Rod</i>	<i>Negiz</i>
vertebra	Vertebrae	<i>f</i>	vertebr-
canalis	Canalis	<i>m</i>	canal-
septum	Septi	<i>n</i>	sept-
zygoma	Zygomatis	<i>n</i>	zygomat-
regio	Regionis	<i>f</i>	region-
ductus	Ductus	<i>m</i>	duct-
cornu	Cornus	<i>n</i>	corn-
facies	Faciei	<i>f</i>	faci-
crus	Cruris	<i>n</i>	crur-
foramen	Foraminis	<i>n</i>	foramin-

GLOSSARIY

Otlar

acromion akromion

articulatio bo'g'im

brachium yelka

canalis kanal

cingulum belbog', kamarclavicula o'mrov

coccyx dum

costa qovurg'a

dens tish

fissura yoriq

foramen teshik

fossa cho'zinchoq chuqur

fovea dumaloq chuqur

hiatus tirqish

humerus yelka suyagi

incisura o'yma

mandibula pastki jag'

maxilla yuqori jag'

membrum mucha

olecranon tirsak suyagi o'simtasi

periosteum suyak usti pardasi

radius bilak suyagi

scapula kurak suyagi

tuber do'mboq

tuberculum do'mboqcha

ulna tirsak suyagi

Sifatlar

articularis bo'g'imga oid

clavicularis o'mrovga oid

coccygeus dumga oid
costalis qovurg'aga oid
jugularis bo'yinturuqqa oid
pharyngeus halqumga oid
thoracicus ko'krakka oid
transversus ko'ndalang

QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!

M: Aorta, ae, f — shotomir
arteria, ae, f — o'q qon tomiri
bursa, ae, f — xalta
clavicula, ae, f — o'mrov suyagi
costa, ae, f — qovurg'a
cuticula, ae, f — nozik po'st teri
fascia, ae, f — mushak pardasi
fibula, ae, f — kichik bolder suyagi
fossa, ae, f — chuqurcha
fractura, ae, f — sinish
M: glandula, ae, f — bezcha
lingua, ae, f — til
mamma, ae, f — sut bezi
mandibula, ae, f — pastki jag'
maxilla, ae, f — yuqori jag'
pleura, ae, f — o'pka pardasi
scapula, ae, f — kurak
tibia, ae, f — katta boldir suyagi
tonsilla, ae, f — bodomsimon bez
trachea, ae, f — kekirdak
urethra, ae, f — siydik chiqarish yo'li
urina, ae, f — siydik
vagina, ae, f — qin, ayollar jinsiy

a'zosivena, ae, f — ko'k qon tomir, vena
vertebra, ae, f — umurtqa
vesica, ae, f — pufak
vesicula, ae, f — pufakcha
bucca, ae, f — lunj
calvaria, ae, f — kalla suyagining qopqog'i
cellula, ae, f — hujayracha
columna, ae, f — umurtqa ustuni
concha, ae, f — chig'anoq
cornea, ae, f — ko'z shox pardasi
crista, ae, f — qirra
fissura, ae, f — yoriq, darz
gingiva, ae, f — milk
gravida, ae, f — homilador
incisura, ae, f — kesma, bo'lakcha
mamilla, ae, f — ko'krak so'rg'ichi, emchak uchi
medulla, ae, f — miya moddasi, miya
medulla ossium — ilikli suyak
medulla spinalis — orqa miya
medulla odlongata — uzunchoq miya
membrana, ae, f — nog'ora parda
nucha, ae, f — bo'yinning orqa
tomoniorbita, ae, f — ko'z kosasi
palpebra, ae, f — qovoq
papilla, ae, f — so'rg'ich
patella, ae, f — tizza qopqog'i
prostata, ae, f — erkaklar jinsiy a'zosining toq (prostata) bezi
pulpa ae, f — go'sht, et
retina ae, f — to'r parda (ko'zga oid)
sclera, ae, f — ko'zning oq pardasi

spina, ae, f — tuk
substantia, ae, f — modda (asos)
sutura ae, f — chok
vulva ae, f — ayollarning tashqi jinsiy a'zosi

18-mashq. Quyidagi otlarni tarjimasiga qarab joylashtiring.

Arteria — pufak -
clavicula — ko'k qon tomir -
costa — umurtqa -
fibula — qin -
fractura — siydik -
glandula — kurak-
lingua — katta boldir suyagi-
mandibula — bodomsimon bez-
maxila — o'q qon tomiri-
pleura — o'mrov suyagi-
scapula — qovurg'a-
tibia — sinish-
tonsilla — til-
urina — yuqori jag'-
vagina — o'pka pardasi-

19-mashq. Tibbiy atamalarni ma'nosiga qarab joylashtiring.

Calvaria — chok-
columna — modda-
fissura — ayollarning tashqi jinsiy a'zosi
gingiva — ko'zning oq pardasi
medulla — erkaklar jinsiy a'zosining toq bezi
membrana — kalla suyagi qopqog'i
orbita — ustun

palpebra, ae, f — yoriq
prostata — milk
papilla — miya
sclera — nog‘ora parda
substantia — ko‘z kosasi
sutura — qovoq
vulva — so‘rg‘ich

20-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qilgan holda bosh kelishik birlik va ko‘plik (Nominativus Singularis et Pluralis hamda qaratqich kelishik birlik va ko‘plik Genetivus Sing. et Plur)da turlang.

M: O‘q qon tomiri
qovurg‘a
bodomsimon bez
til
siydik,
kurak
umurtqa
pufak
ko‘k qon tomiri
Kalla suyagining qopqog‘i
Yoriq
Milk
Miya
nog‘ora
Suv

21-mashq. Quyidagi otlarning kelishigini aniqlang.

Aorta –
Bursae –
Costarum –

Fibula –
Glandulae –
Fractura-
Venarum -
Vesicae -
Vagina –
Urinarum -
Buccae –
Cellularum –
Cornea –
Incisurae –

MAVZUGA OID SAVOLLAR:

1. Otlarda nechta rod bor?
2. Lotin tilidagi otlarning soni nechaga bo‘linadi?
3. Tibbiyotda qaysi kelishiklar ko‘p qo‘llaniladi?
4. Qaysi kelishik qo‘shimchasiga qarab otlarning guruhi aniqlanadi?
5. Besh guruhga tegishli otlarning Gen. Sing. qo‘shimchasini aytib bering.
6. Otlarning lug‘at shakli qanday yoziladi?
7. Lug‘atda otlarning rod belgisi qanday ko‘rsatiladi?
8. Birinchi guruh otlari qaysi rodga tegishli?
9. Birinchi guruh otlari Nominativus et Genetivus da qanday qo‘shimchalarga ega?

Mustaqil o‘rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so‘zlar

Ars longa vita brevis.

Hayot qisqa, san’at esa abadiydir.

Vita sine litteris mors est.

Ilmsiz hayot — o‘limdir.

Amat victoria curam. Talabalik tirishqoqlikni talab qiladi.

Carpe diem.

Bugungi ishni ertaga qoldirma.

Domus propria — domus optima.

Mehmondorchilik yaxshi, uy undan ham yaxshi.

T E S T

1. Otlarning nechta rodi bor?

A)3 B)2 D)4

2. Rodni lotincha nomi.

A)genus B)singularis D)plurdliis

3. Lotin tilida nechta kelishik bor.

A)6 B)5 D)4

4. Tibbiyotda nechta kelishik qo`llaniladi.

A)6 B)5 D)4

5. Genus neutrum qaysi rod.

A)sredniy rod B)jenskiy rod D)mujskoy rod

6. Casus Ablativus qaysi kelishik.

A)chiqish kelishigi B)bosh kelishik D)qaratqich kelishigi

7. Jenskiy roddagi otlar qaysi turlanishda turlanadi va nechta.

A)5 B)2 D)6

8. Pilula nima.

A)tabletka B)kukun D)xab dori

9. Lotin tilida nech xil aniqlovchi bor.

A)2 B)3 D)4

10. Yalpizning suvi lotincha nomi.

A)aqua menthae B)vena portae D)gemma Betulae

5-MAVZU: II TURLANISHDAGI OTLAR.

MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. II TURLANISHDAGI OTLAR.
2. MOSLASHMAGAN ANIQLVCHI haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1. Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.
2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.
3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.
4. O'quv – uslubiy majmua
5. Mavzuga oid PPT.
6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni so'rash;
2. Yangi mavzu bayoni;
3. Mashqlar bajarish;
4. Mustaxkamlash;
5. Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.
Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

OTLARNING IKKINCHI GURUHDA TURLANISHI.

II turlanishga Nom.Sing da -us,-er qo'shimchasi bo'lgan mujskoy rod va -um qo'shimchasiga ega bo'lgan sredniy roddagi otlar kiradi.

Otlarning ikkinchi guruhiga mujskoy (Masculinum) va sredniy (Neutrum) roddagi otlar kiradi. Masculinum Nom. Sing. da -us, -er qo'shimchasiga, Neutrum Nom. Sing. da um qo'shimchalariga ega. Ikkala roddagi otlar Gen. Sing. da -i qo'shimchasi bilan turlanadi va lug'at shakli quyidagicha bo'ladi. Masalan:

Musculus, i, m — mushak ; magister, tri, m — o'qituvchi ; oleum, i, n — moy; unguentum, i, n — surtma; spasmus,I,m-qisilish; cancer,cri,m-saraton,rak ; cpanium,i,n-kalla suyagi.

Kelishik qo'shimchalari: Masculinum-m

Casus	Sing.	Plur.		
Nom.	us,er	i	bronchus	
Gen.	i	orum		
Dat.	o	is		
Acc.	um	os		
Abl.	o	is		

Masalan: Oculus,I,m – ko'z; cancer,cri,m-saraton,rak

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	oculus,cancer	Oculi,canceri
Gen.	Oculi,canceri	Oculorum,cancrorum
Dat.	Oculo,cancro	Oculis,cancris
Acc.	Oculum,cancrum	Oculos,cancros
Abl.	Oculo,cancro	Oculis,cancris

Neutrum – n kelishik qo'shimchalari:

Casus	Sing.	Plur.		
Nom.	um	i	cerebrum	
Gen.	i	orum		
Dat.	o	is		
Acc.	um	os		
Abl.	o	is		

Casus	Sing.	Plur.		
Nom.	Cranium	cranii	rectum	
Gen.	cranii	cranium		
Dat.	cranio	craniis		
Acc.	cranium	cranos		
Abl.	cranio	craniis		

Qoidadan tashqari holat

Quyidagi otlar Femininum rodiga tegishli

Alnus, if — qandag‘och

Amygdalus, i, f — bodom (daraxt)

Crataegus, i, f — do‘lana Eucalyptus, i, f — evkalipt

Juniperus, i, f — archa

Pinus, i, f — qarag‘ay

Rhamnus, i, f — itjumrut

Padus, i, f — shumurt

Sambucus, i, f — marjon daraxt

Sorbus, i, f — milash (chetan)

QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING

Bronchus, i, m — bronx, nafas yo‘li

oesophagus, i, m — qizilo‘ngach

humerus, i, m — yelka suyagi

morbus, i, m — kasallik musculus, i, m — mushak, muskul

nasus, i, m, — burun

nervus, i, m — asab

oculus, i, m — ko‘z

uterus, i, m — bachadon

ventriculus, i, m — me‘da, oshqozon

cerebrum, i, n — bosh miya

cranium, i, n — kalla suyagi

duodenum, i, n — o‘n ikki barmoqli ichak

intestinum, i, n — ichak
myocardium, i, n — yurak mushagi
endocardium, i, n — yurak ichki pardasi
epicardium, i, n — yurak mushagini sirtidan
qoplovchi seroz parda
pericardium, i, n — yurak xaltasi
peritoneum, i, n — qorin seroz pardasi
rectum, i, n — to‘g‘ri ichak
per rectum — to‘g‘ri ichak orqali
angulus, i, m — burchak
bulbus oculi — ko‘z soqqasi
carpus, i, m — kaft oldi
metacarpus, i, m — kaft orqasi
condylus, i, m — bo‘rtma shakldagi o‘sma
digitus, i, m — barmoq
folliculus, i, m — xaltacha, pufakcha
fundus, i, m — tagi, osti
lobus, i, m — bo‘lak
lobulus, i, m — bo‘lakcha
lumbus, i, m — bel
nodus, i, m — tugun
neonatus, i, m — yangi tug‘ilgan bola, chaqoloq
pylorus, i, m — me‘dani chiqish qismi
sulcus, i, m — burushiq, ajin
tarsus, i, m — oyoq kafti yuzasiga oid
metatarsus, i, m — oyoq kaftiga oid
thalamus, i, m — ko‘ruv do‘mbog‘i
thymus, i, m — ayrisimon bez
truncus, i, m — gavda, poya, tana
umbilicus, i, m — kindik

atrium i, n — yurak boʻlmasibrachium, i, n — yelka
 antebrachium, i, n — bilak
 cavum, i, n — boʻshliq
 caecum, i, n — koʻrichak
 cerebellum, i, n — miyacha
 collum, i, n — boʻyin, boʻyinch
 dorsum, i, n — orqa
 ileum, i, n — yonbosh ichak
 jejunum, i, n — ingichka ichak
 labium, i, n — lab
 ligamentum, i, n — bogʻlam
 ovarium, i, n — tuxumdon
 permeum, i, n — oraliq
 septum, i, n — toʻsiq
 sternum, i, n — koʻkrak (toʻsh)
 tympanum, i, n — nogʻora
 membrana tympani — nogʻora parda

22-mashq. Quyidagi otlarni tarjimasiga qarab moslashtiring.

Bronchus	qorin seroz pardasi
humerus	toʻgʻri ichak
morbus	yurak mushagi
musculus	ichak
nasus	kalla suyagi
nervus	oʻn ikki barmoq ichak
oculus	bosh miya
uterus	nafas yoʻli
ventriculus	yelka suyagi
cerebrum	kasallik
cranium	mushak

duodenum	burun
intestinum	asab
myocardium	ko‘z
peritonaemum	bachadon
rectum	me‘da

23-mashq. Quyidagi atamalarni ma‘nosiga qarab joylashtiring.

Carpus	tuxumdon
condylus	bog‘lam
digitus	nog‘ora
lobus	ko‘krak
lumbus	orqa
nodus	ko‘richak
thymus	bo‘shliq
truncus	bilak
umbilicus	kaft oldi
brachium	bo‘rtma shakldagi o‘sma
antebrachium	barmoq
cavum	bo‘lak
caecum	bel
collum	tugun
dorsum	ayrisimon bez
labium	gavda
ligamentum	kindik
ovarium	yelka
sternum	lab
tympanum	bo‘yin

24-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling va Nominativus Sing. hamda Genetivus Sing. da turlang.

M: qizilo‘ngach, yelka suyagi, mushak, ko‘z, bachadon, me‘da, yurakning ichki pardasi, yurak mushagini sirdan qoplovchi seroz parda, yurak xaltachasi, to‘g‘ri ichak, o‘n ikki barmoq ichak, burchak, ko‘z soqqasi, kaft orqasi, xaltacha tagi, bo‘lakcha, chaqaloq, oyoq kafti yuzasiga oid: nog‘ora parda, ko‘ruv do‘mbog‘i, kindik.

25-mashq. Quyidagi otlarning kelishigini aniqlang.

Oesophagus, morbus, musculi, cerebri, cranii, per rectum, bulbi oculi, digitorum, lumbi, umbilici.

26-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va moslashmagan aniqlovchini toping.

Angullus oculi, caput humeri, cavum pericardii, cavum pleurae, corpus humeri, fossa cranii, fundus oculi, septum nasi, septum linguae, morbus oesophagi, angulus costae, cancer labii, collum costae, dorsum sellae, fractura digitorum, fissura cerebelli, fundus vesicae, ligamentum nuchae, morbus gingivorum, vestibulum vaginae

MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI

Lotin tilida ikki xil aniqlovchi qo‘llaniladi: moslashgan aniqlovchi sifat bilan, moslashmagan aniqlovchi esa qaratqich kelishigida turlangan ot bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: aqua Menthae — yalpizning suvi, tinctura Valerianae — valeriananing spirtli eritmasi, tabuletta Bromcaphorae — bromkamforaning tugmachasimon dorisi, gemma Betulae — qayinning kurtagi, vena portae — ko‘k qon tomirning a‘zoga kirish joyi. Moslashmagan aniqlovchi bilan aniqlanuvchi atamani kelishiklar bo‘yicha turlaganda faqat aniqlanuvchi so‘z o‘zgarib, moslashmagan aniqlovchi esa o‘zgarmasdan qoladi.

27-mashq. Quyidagi so‘zlarni lotin tiliga tarjima qiling va moslashmagan aniqlovchini ko‘rsating.

Qizilo‘ngachning xafla o‘smasi (raki)-
me‘da raki –

asab kasalligi –
 bosh miyaning ko‘k tomiri (Vena) -
 me‘da osti –
 barmoq sinishi –
 muskul boylami –
 nog‘ora pardasi –
 to‘sh burchagi –
 qovurg‘a bo‘yinchasi –
 orqa muskul -
 kalla suyagining choki –
 miyachaning bo‘lakchalari –
 bosh miya bo‘lagi –
 bachadon bo‘yinchasi –

28-mashq. Quyidagi moslashmagan aniqlovchilarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Caput fibulae-	, caput costae-	, corpus linguae-
corpus tibiae-	, corpus vesicae-	, corpus vertebrae-
fascia prostatae-	, fossa vesicae-	, incisura andibulae,
papilla mammae-	, ruptura vaginae-	valva
Ampulla tibiae (uterinae)-	, commissura palpebrarum-	
,concha auriculae-	, fascia nuchae palpebrarum-	
,spina scapulae-	, sutura calvariae aortae-	, valvula venae-

29-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling.

Tilning ko‘k tomiri-	, kurakning sinishi-
, o‘mrov suyagining sinishi-	, qovurg‘alarning sinishi-
, yuqori jag‘ning sinishi-	, pastki jag‘ning sinishi-
, ko‘z shox pardasining moddasi-	

Mavzuga oid savollar.

1. Ikkinchi guruhda turlanuvchi otlarga qaysi rodlar misol bo'ladi?
2. Ikkinchi guruhdagi turlanuvchi otlarning lug'ut shakli qanday yoziladi?
3. Masculinum ga oid ikkinchi guruh otlari Nom. Sing. va Gen. Sing. da qanday qo'shimchalarga ega bo'ladi?
4. Nautrum ga oid ikkinchi guruh otlari Nom. Sing. va Gen. Sing. da qanday qo'shimchalarga ega bo'ladi?
5. Ikkinchi guruh otlarini yasashda qanday so'z yasovchi qo'shimchalar ishlatiladi?
6. Ikkinchi guruhda turlanuvchi Femininum ga oid otlarni aytib bering.
7. Lotincha-yunoncha ma'nodosh atamalarni aytib bering.

Mustaqil o'rganish uchun.

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Homines dum docent, discunt.

Odamlar o'rgatib o'rganadilar.

Multum vinum bibere, non diu vivere.

Ichkilikni ko'p ichgan, ko'p yashamaydi.

Non progredi est regredi.

Olg'a intilmaslik, orqada qolmoq demakdir.

Nulla aetas ad discendum sera.

Ilmning kechi bo'lmaydi.

Qui quaerit — reperit.

Izlagan — topadi.

Summum bonum medicinae sanitas.

Tibbiyotning oliy maqsadi — sog'liq-salomatlik.

Testni yeching.

1. II turlanishga qaysi rodlar kiradi?
A) m,f,n B) m,n C) f,n
2. m rodiga tegishli qo'shimchalar:
A) us, er B) um,en C) a,ae

3. n rodiga tegishli qo'shimchalar:
A) us,er B) um,en C) a,ae
4. Cranium so'zining ma'nosi:
A) Bosh miya B) yelka C) kalla suyagi
5. Cerebrum so'zining ma'nosi:
A) Bosh miya B) yelka C) kalla suyagi
6. Humerus so'zining ma'nosi:
A) Bosh miya B) yelka C) kalla suyagi
7. Morbus so'zining ma'nosi:
A) Soglik B) kasallik C) ozodlik
8. Moslashtiring: Vaselinum...
A) Purus B) pura C) purum
9. Moslashtiring: Musculus...
A) Rectus B) recta C) rectum
10. Moslashtiring. Aqua...
A) Purum B) puri C) pura

6 - MAVZU: SIFAT. I-II GURUX SIFATLARI.

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. I gurux sifatleri.
2. II gurux sifatleri.
3. Sifatlarining III guruxda turlanishi haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1.Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

4.O'quv – uslubiy majmua

5. Mavzuga oid PPT.

6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1.O'tilgan mavzuni so'rash;

2.Yangi mavzu bayoni;

3.Mashqlar bajarish;

4.Mustaxkamlash;

5.Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

SIFAT

Predmetning belgisini bildirib qanday? qanaqa? savollariga javob boʻlgan soʻzlarga sifat deyiladi. Lotin tilida sifatlar otlar kabi rollarda, sonlarda va kelishiklarda turlanadi. Sifatlarning oʻz kelishik qoʻshimchalari boʻlmaganligi sababli ular I, II va III guruhdagi otlarning kelishik qoʻshimchalari orqali turlanadi.

Sifatlar ikki guruhga boʻlinadi:

birinchisi — birinchi va ikkinchi guruhda turlanuvchi sifatlar;

ikkinchisi — uchinchi guruhda turlanuvchi sifatlar.

Birinchi guruhda turlanuvchi sifatlar Femininum rodiga tegishli boʻlib, Nom. Sing. dagi qoʻshimchasi -a va Masculinum hamda Neutrum rodlariga tegishli boʻlib, Masculinum Nom. Sing.da -us,-er qoʻshimchalariga va Neutrum Nom. Sing. da -um qoʻshimchasiga ega boʻladi. Birinchi guruhda turlanuvchi sifatning lugʻat shakli Lugʻatlarda Masculinum rodiga tegishli sifatning toʻliq shakli yozilib, keyin Femininum va Neutrum rodlarining Nom. Sing. qoʻshimchasi yoziladi. Masalan:

Purus, a, um — toza, ruber, bra, brum — qizil, niger, gra, grum — qora.

Sifatlarning lugʻat shaklini esda saqlash kerak. Birinchi guruh sifatlarining kelishiklardagi turlanish namunasi. 1. Purus, a, um, — toza;

2. Dexter, tra, trum — oʻng.

QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!

Acusticus, a, um — eshitishga oid

cavus, a, um — kovak, ichi boʻsh

coccygeus, a, um — dumgʻazaga oid

coronarius, a, um — tojsimon

dexter, tra, trum — oʻng

sinister, tra, trum — chap

externus, a, um — tashqi

internus, a, um — ichki

gastricus, a, um — meʼdaga oid

iliacus, a, um — yonboshga tegishli

intermedius, a, um — oraliq
latus, a, um — keng
lymphaticus, a, um — limfasimon
medianus, a, um — oraliq
medius, a, um — oʻrta
thoracicus, a, um — chuqur
profundus, a, um — koʻkrakka tegishli
transversus, a, um — koʻndalang
nervus trigeminus — uch shoxli nerv
zygomaticus, a, um — yuz suyagiga tegishli
callosus, a, um — serqadoq
compactus, a, um — zich, tigʻiz
cutaneus, a, um — teriga oid
subcutaneus, a, um — teri ostiga tegishli
musculus deltoideus — deltasimon mushak
durus, a, um — qattiq
pius, a, um — miya pardasining yumshoq
toʻqimasiga oid
fibrosus, a, um — tolasimon
glandulosus, a, um — bezsimon
ischiadius, a, um — quymichga tegishli
mastoideum, a, um — sut bezisimon
mucosus, a, um — shilliqsimon
obliquus, a, um — qiyshiq
oblongatus, a, um — uzunchoqpalatinus, a, um — tanglayga oid
pilosus, a, um — sersoch
saphenus, a, um — yashirin
serratus, a, um — tishli
spinosus, a, um — serqiltiq, sertuk
spongiosus, a, um — gʻovaksimon

squamosus, a, um — tangachasimon
 acutus, a, um — o‘tkir
 chronicus, a, um — surunkali
 contagiosus, a, um — yuqumli
 epidemicus, a, um — keng tarqaluvchi
 malignus, a, um — xavfli
 toxicus, a, um — zaharli
 tuberosus, a, um — egri-bugrisimon
 vasculosus, a, um — sertomir
 verrucosus, a, um — serso‘gal

30-mashq. Quyidagi sifatlarni tarjimasiga qarab moslashtiring. M.

Acusticus	ko‘krakka oid
Coccygeus	oraliqdexter yuz suyagiga tegishli
internus	limfasimon
externus	eshitishga oid
gastricus	dumg‘azaga oid
lymphaticus	o‘ng
medianus	tashqi
thoracicus	me‘daga oid
zygomaticus	ichki

31-mashq. Sifatlarni ma’nosiga qarab joylashtiring.

Compactus	sertomir
Cutaneous	egri-bugri
Durus	serso‘gal
Fibrosus	zaharli
ischiodicus	xavfli
mastoideus	keng tarqaluvchi
mucosus	yuqumli
oblongatus	surunkali

palatinus	o'tkir
acutus	uzunchoq
chronicus	tanglayga oid
contagiosus	shilimshiqsimon
epidemicus	sut bezisimon
malignus	quymichga tegishli
toxicus	tolasimon
tuberosus	qattiq
vasculosus	teriga oid
verrucosus	zich

32-mashq. Quyidagi sifatlarni lotin tiliga tarjima qiling va lug'at shaklida yozing.

Tojsimon,	kovak,	chap,
yonboshga tegishli	, oraliq	, keng
,chuqur	, ko'ndalang	, o'rta
Serqadoq	, teri ostiga tegishli	yumshoq
, bezsimon	, qiyshiq	, yashirin
sertuk	, tishli	, g'ovaksimon
,tangachasimon	, egri-bugrisimon	sertomir,
zaharli	, serso'gal	.

IKKINCHI GURUH SIFATLARI

Ikkinchi guruh sifatlari uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning kelishik qo'shimchalarida turlanadi. Ikkinchi guruh sifatlari uchta kichik guruhga bo'linadi:

1. (Teng murakkab) uch qo'shimchali sifatlarda har bir rod o'zining qo'shimchasiga ega bo'ladi:

Masculinum rodi -er, aser (m) — o'tkir

Femininum rodi -is, acris (f) — o'tkir

Neutrum rodi -e, acre (n) — o'tkir

Bu guruhning lugʻat shakli quyidagicha boʻladi: Silvester, tris, tre — oʻrmonga oid

2. (Teng murakkab) ikki qoʻshimchali sifatlarda Masculinum va Femininum rodi -is, medicinalis — tibbiy, Neutrum rodi -e, medicinale — tibbiy. letalis, e — oʻldiruvchan

3. (Noteng murakkab) bir qoʻshimchali sifatlarda uchala rod bir qoʻshimchaga, yaʼni -s, -x, yoki -g qoʻshimchalariga ega boʻlishi mumkin. Bunda lugʻat shakli quyidagicha boʻladi. Birinchi Nom. Sing. shakli toʻliq yoziladi, keyin Gen. Sing. ning kelishik qoʻshimchasi koʻrsatiladi:

Simplex, icis — oddiy recens, ntis — yangi chiqqan, uzilgan, buzilmagan par, paris — bir xil, baravar, teng teres, etis — dumaloq, soqqasimon

QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!

Biceps, bicipitis — ikki boshli

cerebralis, e — miyaga oid

cervicalis, e — boʻyinga tegishli

costalis, e — qovurgʻaga qarashli intercostalis, e — qovurgʻalar orasiga oid

cranialis, e — kalla suyagiga tegishli

dorsalis, e — orqa tomonga qarashli

ethmoidalis, e — panjarasimon

facialis, e — yuzga (betga) tegishli

lateralis, e — yonboshga oid

nasalis, e — burunga oid

occipitalis, e — ensaga tegishli

renalis, e — buyrakka qarashli

sacralis, e — dumgʻazaga oid

sphenoidalis, e — ponasimon

spinalis, e — orqa oʻsimtaga oid

temporalis, e — chakkaga oid

vertebralis, e — umurtqaga tegishli

articularis, e — boʻyinga oid

ascendens, entis — ko‘tariluvchi
descendens, entis — tushuvchi
brachialis, e — yelkasimon
brevis, e — qisqa
caudalis, e — quyruqqa oid
centralis, e — markaziy
distalis, e — markazdan (gavdadan) uzoq
femoralis, s — songa tegishli
frontalis, e — manglayga oid
intervertebralis, e — umurtqa oralig‘iga tegishli
intramuscularis, e — mushak ichiga qarashli
lacrimalis, e — ko‘z yoshiga oid
lingualis, e — tilsimon
sublingualis, e — til ostiga tegishli
longitudinalis, e — uzunasiga
lumbalis, e — belga oid
muscularis, e — mushakka tegishli
ovalis, e — tuxumsimon shakli
parietalis, e — bosh (suyak)ning tepa qismiga oid
proximalis, e — yuqori kamarga yaqin qism
pulmonalis, e — o‘pkaga qarashli
radialis, e — bilakka oid
reconvalescens, tis — sog‘aytiruvchi, sog‘ayuvchi
sternoclavicularis — to‘sh-o‘mrovga tegishli
superfacialis, e — yuzaki
teres, etis — dumaloq, aylanasimon
triceps, itis — uch boshli
ventricularis, e — me‘da

Ikkinchi guruh sifatlari birinchi, ikkinchi va uchinchi guruhlarda turlanuvchi otlar bilan roddada, sonda va kelishiklarda moslashadi, lekin kelishiklar bo‘yicha turlanganda qo‘shimchalari har xil bo‘ladi. Masalan:

1. Tinctura simplex — oddiy spirtli eritma, tinctura, ae, f — spirtli eritma, simplex, icis — oddiy
 2. Morbus gravis — og‘ir kasallik, morbus, i, m — kasallik, gravis, e — og‘ir.
 3. Pars aequalis — teng qism, pars, partis, f — qism, aequalis, e — teng.
 4. Semen dulce — shirin urug‘ semen, inis, n — urug‘ dulcis, e — shirin
- 33-mashq. Sifatlarni tarjimasiga qarab moslashtiring.

Cerebralis	orqa o‘simtaga oid
cervicalis	chakkaga tegishli
costalis	umurtqaga oid
cranialis	buyrakka oid
intercostalis	miyaga oid
dorsalis	bo‘yinga oid
facialis	qovurg‘aga qarashli
nasalis	qovurg‘alar orasiga oid
occipitalis	kalla suyagiga tegishli
renalis	orqaga qarashli
sacralis	yuzga tegishli
spinalis	burunga oid
temporalis	ensaga tegishli
vertebralis	dumg‘azaga oid

34-mashq. Quyidagi sifatlarni mazmuniga qarab o‘z o‘rniga qo‘ying.

Articularis	me‘dasimon
Ascendens	bilakka oid
Descendens	o‘pkaga qarashli
brachialis	bosh (suyak)ning tepa qismiga oid
candalis	bo‘g‘inga oid
centralis	ko‘tariluvchi
femoralis	tushuvchi
frontalis	yelkasimon

intervertebralis	quyruqqa oid
intramuscularis	markaziylacrimalis songa tegishli
lingualis	manglayga oid
lumbalis	mushak ichiga qarashli
muscularis	umurtqa oralig'iga tegishli
parietalis	ko'z yoshiga oid
pulmonalis	tilsimon
radialis	belga oid
ventricularis	mushakka tegishli

35-mashq. Quyidagi sifatlarni lotin tiliga tarjima qiling va lug'at shaklida yozing.

Ikki boshli	, qovurg'alar orasiga oid	
, panjarasimon	, dumg'azaga oid	, ponasimon
chakkaga tegishli	, orqaga(o'simtaga) oid	
, umurtqaga oid	, yelkasimon	, qisqa
, markazdan uzoq	, til ostiga tegishli	
, uzunasiga	, shakli tuxumsimon	, yuqori

kamarga yaqin qism.

36-mashq. Quyidagi sifatlarni otlar bilan moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling.

Foramen (vertebralis, e)	vena (temporalis, e)
intestinum (tenuis, e)	foramen (ovalis, e)
musculus (brevis, e)	pars (aequalis, e)
papilla (lacrimalis, e)	aether (medicinalis, e)
glandula (lacrimalis, e)	pulvis (simplex)
pars (abdominalis, e)	palatum (mollis, e)
vena (centralis, e)	

Mavzuga oid savollar.

1. Sifat deganda nimani tushunasiz?
2. Sifatlar necha guruhga bo‘linadi?
3. Sifatning lug‘at shakli deganda nimani tushunasiz?
4. Femininum rodiga tegishli sifatlar Nom. Sing. va Gen. Sing. qanday qo‘shimchalarga ega?
5. Masculinum va Neutrum rodiga qarashli sifatlar Nom. Sing va Gen. Sing: qanday qo‘shimchalarga ega?
6. Ikkinchi guruh sifatleri necha guruhga bo‘linadi?
7. Ikkinchi guruh sifatlarining lug‘at shakli qanday ifodalanadi?
8. Uch qo‘shimchali, ikki qo‘shimchali va bir qo‘shimchali sifatleri tushuntirib bering.

Mustaqil o‘rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so‘zlar

Ad cogitandum et agentum homo natus est.

Inson fikrlash va harakat qilish uchun yaratilgan.

Disce, sed a doctis, indoctos ipse doceto.

Bilgandan o‘rgan, bilmaganga o‘rgat. Radices doctrinae amarae, fructus dulces sunt.

Ilmning ildizi achchiq, mevasi esa—shirin.

Diagnosis bona, curatio bona.

Yaxshilab tekshirish, davolash garovidir.

Ex malis eligere minima oportet.

Yemonlikdan eng kichigini tanlash lozim.

37-mashq. Quyidagi so‘zlarni tarjima qiling:

1. vena rectalis media;
2. caput humerale;
3. arteria caecalis anterior;
4. Bronchi lobares;
5. cellulae apicales;
6. arteria sternoclavicularis;
7. ramus marginalis dexter;
8. canalis carpalis, palatovaginalis; occipitotemporalis, parietooccipitalis;
9. ligamentum hepatorenale;
10. ramus communicans cum nervo

glossopharyngēo; 11.margo infraorbitālis; 12. impressio suprarenālis hepātis; 13. nodi paratracheāles; 14.ramus laterālis supraorbitālis, subapicālis; 15. regio infraorbitālis, infrascapulāris; 16.septa intermusculāria, interradiculāria; 17. nervus suboccipitālis; 18. Vena sublinguālis, suprarenālis, supraorbitālis; 19. muscūli infrahyoidei; 20. Rami interganglionāres.

38 – mashq. Quydagi soʻzlarni tarjima qiling:


A). Uchki qism, qalampir, dumgʻazaga oid, oʻsimta, umurtqaga oid, xantal, meʻda, koʻtariluvchi, vaqt, tomir, mushakka tegishli, tarmoq, oʻldiruvchan, miyaga oid, uchuvchan, tibbiy, boʻgʻim, zubturum, tabiiy, gavda, asal, eruvchan, chamber ichak, belgi, qinga oid, qovurgʻaga oid, foydali, yoy (ravoq), yigʻma, yurak, suvqalampir tuzatuvchi, poʻstloq, koʻknori, togʻay, yeryongʻoq, pufak, oʻsimlik, ensaga oid, asl nusxa, oqim, quturish, oddiy.

B). Gaster, sapor, amputatio, narcosis, asthma, gargarisma, sacralis, laxans, manus, caries, os (oris), sapo, anamnesis, injectio, carcinoma, elixir, derma, pharmacon, temporalis, plexus, os (ossis), odor, auscultatio, filix, glaucoma, alumen, encephalon, narcosis, vaginalis, facies, pes, carbo, contusio, dosis, symptoma, albumen, enteron, mensis, vertebralis, processus.

39 – mashq. Quyida berilgan sifatlarni otlar bilan moslashtiring va tarjima qiling:

A). Dumgʻazaga oid teshik, yuz suyagiga doir mushak, boʻgʻimga oid oʻsimta, bronxial nafas qisishi, qoringa oid ichterlama, tibbiy vosita, tozalangan suyuqlik, eruvchan kukun, mushak ichiga igna orqali dori yuborish, markaziy, koʻk tomir, tibbiy efir, oddiy kukun.

B). Vertebra (cervicalis), facies (muscularis), nervus (sacralis), os (fibularis), processus (maxillaris), os (nasalis), suppositorium (vaginalis), dosis liquor (volatilis), os (sphenoidalis), arteria (pulmonalis), cartilago (nasalis).



7 – MAVZU. MURAKKAB ANATOMIK ATAMALAR STRUKTURASI.

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. Murakkab atamalar strukturasi
2. Murakkab atamalarning joylashish o'rnini haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1. Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

4. O'quv – uslubiy majmua

5. Mavzuga oid PPT.

6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni so'rash;

2. Yangi mavzu bayoni;

3. Mashqlar bajarish;

4. Mustaxkamlash;

5. Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

Terminlar tuzilish turlari			
Bir soʻzli	Qoʻshmaterminlar-soʻz birikmalari		
	Ikki soʻzli		Koʻp soʻzli
Bosh kelishik birlikdagi yoki koʻplikdagi ot: <u>cor</u> , <u>ossa</u>	Bosh kelishikdagi ot + moslashgan aniqlovchi (sifat, sifatdosh, tartib son): vertebra thoracica	Bosh kelishikdagi ot + moslashmagan aniqlovchi (qaratqich kelishigidagi ot): caput costae	Moslashgan yoki moslashmagan aniqlovchili soʻz birikmasi + butun soʻz birikmasiga aniqlovchi: fovea articularis superior

NB!1. Anatomik terminda birinchi oʻrinda doim bosh kelishikdagi ot turadi, undan soʻng bir yoki bir nechta tobe soʻz keladi.

Bunday aniqlovchilar lotin termini boshlanuvchi ot turkumiga mansub bosh soʻz bilan doim moslashadi va koʻp holatlarda oxirgi oʻringa qoʻyiladi: protuberantia occipitalis externa–tashqi ensa doʻngligi, linea nucha suprema– eng yuqori ensa chizigʻi, canalis palatinus major– katta tanglay kanali.

Moslashgan va moslashmagan aniqlovchi

Moslashgan aniqlovchi deb aniqlanmish ot bilan bir xil rodda, sonda va kelishikda boʻlgan aniqlovchilar tushuniladi. Moslashgan aniqlovchi koʻp holatlarda sifatda ifodalanadi: columna vertebralis– umurtqa pogʻonasi, tonsilla palatina– tanglay bodomchasi.

Moslashmagan deb qaratqich kelishigida boʻlgan ot bilan ifodalanuvchi aniqlovchilar tushuniladi: corpus vertebrae– umurtqa tanasi, cavum nasi– burun boʻshligʻi, fossa cranii– kalla chuquri, arcus pubis– qov ravogʻi, crista galli– xoʻroz toji.

Mashqlar bajaring.

Lotin terminlarining soʻzma-soʻz tarjimasidan foydalangan holda har bir soʻzning kelishigini aniqlang.

40-mashq. A. vertebra thoracica – ko'krak umurtqasi; arcus vertebrae - umurtqa ravog'i; massae laterales - yon massalar; collum radii - bilak suyagi bo'yni; pediculi arcus vertebrae - umurtqa ravog'i oyoqchalari; ligamentum longitudinale anterius -oldingi bo'ylama boylam; ligamentum capitis costae intraarticulare - qovurg'a boshchasi bo'g'im ichi boylami; basis ossis sacri – dumg'aza suyagi asosi (=dumg'aza asosi); labium mediale lineae asperae – g'adirbudur chiziq medial labi; sulcus sinus sigmoidei - sigmasimon sinus egati; fovea articularis processus articularis superioris - yuqori bo'g'im o'simtasi bo'g'im chuquri; aponeurosis muscoli obliqui externi abdominis - qorin tashqi qiyshiq mushagi aponevrozi; musculus rectus capitis posterior major - boshning katta orqa to'g'ri mushagi; arteriae alveolares superiores anteriores - oldingi yuqori alveola arteriyalari.

B. processus articularis inferior vertebrae lumbalis secundae - ikkinchi bel umurtqasi quyi bo'g'im o'simtasi; ligamenta columnae vertebralis – umurtqa pog'onasi boylamlari; caput superius muscoli pterygoidei lateralis – yon qanotsimon mushakning yuqori boshi; articulationes cinguli membri superioris - yuqori mucha kamari bo'g'implari (=yelka kamari bo'g'implari); sinus venarum cavarum atrii dextri – o'ng bo'lmacha kavak venalari sinusi.C. tuber maxillae - yuqori jag' do'mbog'i; palatum durum - qattiq tanglay; apex radiceis dentis - tish ildizi uchi; foramen palatinum majus - katta tanglay teshigi; tunica mucosa linguae - til shilliq qavati; cartilago septi nasi - burun to'sig'I tog'ayi; concha nasalis inferior - quyi burun chig'anog'i; plexus cavernosi concharum - chig'anoqlar g'orsimon chigallari.

41-mashq .Tarjima qiling.

Arteria coronaria dextra, aorta thoracica, glandula thyroidea, glandulae gastricae, humerus dexter et sinister intestinum crassum, morbus chronicus, morbus hypertonicus et hypotonicus, morbus ischaemicus, musculus trapezius, nervus ischiadicus, nervus vagus, pneumonia crouposa, vena cava, ventriculus dexter, vertebra thoracica, vesica fellea, vesica urinaria, Cancer ventriculi, ganglia thoracicae, glandula parathyroidea, incisura cardiaca, medulla oblongata, musculus

organismi, nodus lymphaticus, nervus trigeminus, palatum osseum, sutura palatina mediana, tunica vasculosa, typhus exanthematicus, urethra femina, urethra masculina, variola vera, morbus, contagiosus est, diphtheria morbus internus est.

42 – mashq. Quyidagi soʻzlarni lotin tiliga tarjima qiling.

Chap meʼda, oʻng koʻz, koʻkrakka oid aorta, koʻrish nervi, koʻzga oid muskul, koʻndalang muskul, asab kasalligi, ichki kasallik, sariq bogʻlam, keng bogʻlam, limfa tuguni, tangachasimon chok, uzun muskul, tanglayga oid koʻndalang chok, surunkali meʼda kasalligi.

43 – mashq. Quyida berilgan sifatlarni otlar bilan moslashtiring va tarjima qiling:

A). lobus (dexter), substantia (compactus), bronchus (medius), medulla (oblongatus), medicamentum (internus), morbus (contagiosus), glycosidum (cardiacus), clavicula (dexter), capsula (gelatinosus), vesica (urinarius), rheumatismus (acutus), scapula (sinister).

B). Toʻgʻri ichak, tashqi chok, surunkali kasallik, suyuq ekstrakt, kamforali moy, meʼda shirasi, surunkali revmatizm, elastic kapsula, oʻt pufagi, oʻng koʻz, toza kodein, ichki kasallik.

C).1. vena rectālis media; 2. caput humerāle; 3. arteria caecālis anterior; 4. Bronchi lobāres; 5. cellulae apicāles; 6. arteria sternoclaviculāris; 7. ramus marginālis dexter, 8. canalis carpālis, palatovaginālis; occipitotemporālis, parietooccipitālis; 9.ligamentum hepatorenāle; 10. ramus communicans cum nervo glossopharyngēo; 11.margo infraorbitālis; 12. impressio suprarenālis hepātis; 13. nodi paratracheāles; 14.ramus laterālis supraorbitālis, subapicālis; 15. regio infraorbitālis, infrascapulāris; 16.septa intermusculāria, interradiculāria; 17. nervus suboccipitālis; 18. Vena sublinguālis, suprarenālis, supraorbitālis; 19. muscūli infrahyoidei; 20. Rami interganglionāres.

Leksik minimum


I turlanishdagi otlar

clavicula, ae f oʻmrov

fascia, ae f fassiya

fibula, aef kichik boldir suyagi
nucha, ae f ensa
squama, ae f tanga
tibia, ae f katta boldir suyagi
tonsilla, ae f bodomcha
ulna, ae f tirsak suyagi III turlanishdagi otlar
nasus, i m burun
organum, i n a'zo
palatum, i n tanglay
porus, i m teshikcha
vestibulum, i n dahliz
III turlanishdagi otlar
caput, itis n bosh
os, oris n og'iz
I guruh sifatleri
albus, a, um oq
asper, a, um g'adir-budur
coronarius, a, um tojsimon
dexter, tra, trum o'ng
durus, a, um qattiq
iliacus, a, um yonboshga oid
liber, era, erum erkin
massetericus, a, um chaynovchi (mushak)
mylohoideus, a, um jag'-til osti
niger, gra, grum qora
obliquus, a, um qiyshiq
osseus, a, um suyakka oid
palatinus, a, um tanglayga oid
palatoglossus, a, um tanglay-til osti
pterygoideus, a, um qanotsimon

rectus, a, um to'g'ri
sacer, cra, crum dumg'azaga oid
sinister, tra, trum chap
thoracicus, a, um ko'krakka oid
thyr(e)oideus, a, um qalqonsimontransversus, a, um ko'ndalang
venosus, a, um venaga oid
zygomaticus, a, um yonoqqa oid
II guruh sifatlari
alaris, e qanotga oid
cerebralis, e miyaga oid
cervicalis, e bo'yinga oid
dentalis, e tishga oid
ethmoidalis, e g'alvirsimon
frontalis, e peshonaga oid
infraorbitalis, e ko'z kosasi osti
jugularis, e bo'yinturuqqa oid
mandibularis, e pastki jag'ga oid
maxillaris, e yuqori jag'ga oid
mentalis, e engakka oid
mollis, e yumshoq
nasalis, e burunga oid
occipitalis, e ensaga oid
orbitalis, e ko'z kosasiga oid
sacralis, e dumg'azaga oid
sphenoidalis, e ponasimon
temporalis, e chakkaga oid
vertebralis, e umurtqaga oid



↳-rasm. Boshning yonbosh qismi

8 – MAVZU. MOSLASHGAN ANIQLOVCHI ISHTIROKIDA ANATOMIK ATAMALAR. MOSLASHGAN ANIQLOVCHI

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. Moslashgan aniqlovchi.
2. Sifatlarni otlar bilan moslashishi.
3. Kelishiklarda turlanishi haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1. Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

4. O'quv – uslubiy majmua

5. Mavzuga oid PPT.

6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni so'rash;

2. Yangi mavzu bayoni;

3. Mashqlar bajarish;

4. Mustaxkamlash;

5. Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

Moslashgan aniqlovchi deb aniqlanmish ot bilan bir xil rod, sonda va kelishikda bo'lgan aniqlovchilar tushuniladi. Moslashgan aniqlovchi ko'p holatlarda sifatda ifodalanadi: *columna vertebralis*– umurtqa pog'onasi, *tonsilla palatina*– tanglay bodomchasi.

Lotin tilida sifatlar rod, son hamda kelishik bo'yicha o'zgaradi va ot sifatini aniqlab, u bilan rod, son va kelishikda moslashadi. Moslashgan aniqlovchi—sifat hamma vaqt otdan keyin turadi:

Cera pura — toza mum,

succus purus — toza shira,

Vaselinum purum — toza vazelin.

Birinchi guruh sifatlarining otlar bilan kelishiklarda turlanish namunasi:

Musculus rectus —to'g'rilovchi muskul,

oculus dexter —o'ng ko'z,

vena dextra —o'ng ko'k tomir,

extractum fluidum —suyuq ekstrakt.

44 – mashq. Quyida berilgan sifatlarni otlar bilan moslashtiring va tarjima qiling:

A). *lobus (dexter)*, *substantia (compactus)*, *bronchus (medius)*,*medulla (oblongatus)*, *medicamentum (internus)*, *morbis (contagiosus)*, *glycosidum (cardiacus)*, *clavicula (dexter)*, *capsula (gelatinosus)*, *vesica (urinarius)*, *rheumatismus (acutus)*, *scapula (sinister)*.

B). To'g'ri ichak, tashqi chok, surunkali kasallik, suyuq ekstrakt, kamforali moy, me'da shirasi, surunkali revmatizm, elastic kapsula, o't pufagi, o'ng ko'z, toza kodein, ichki kasallik.

C). *epicerebrālis*, *perilymphaticus*, *extramedullāris*, *endocervicālis*, *endopelvīcus*,*extrapulmonālis*, *epicraniālis*, *endothoracīcus*, *episternālis*, *extrahepatīcus*,*interpubīcus*, *interlobulāris*.

D) *colon*, -i n (*ascendens*, -ntis)-


corpus, -oris n (*ruber*, -bra, -brum) -

labium, -i n (*anterior*, -ius) -

margo, -inis m (inferior, -ius)-
stratum, -i n (longitudinalis, -e)-
taenia, -ae f (liber, -era, -erum) -

Mavzuga oid savollar:

1. Moslashgan aniqlovchi deb nimaga aytiladi?
2. Sifatlarini otlar bilan moslashishini tushuntiring.
3. Kelishiklarda turlanishini yozib bering.



Rasm 1.5Qorin-chanoq kvadrantlari va sohalari. (A) Qorinning to'rt kvadranti. (B) Qorinning to'qqiz sohasi.

9- MAVZU: SIFAT DARAJALARI.

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. Sifat darajalari.
2. Oddiy daraja.
3. Qiyosiy daraja.
4. Orttirma daraja haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1.Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

- 4.O'quv – uslubiy majmua
5. Mavzuga oid PPT.
6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

- 1.O'tilgan mavzuni so'rash;
- 2.Yangi mavzu bayoni;
- 3.Mashqlar bajarish;
- 4.Mustaxkamlash;
- 5.Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

Lotin tilida sifat darajalari xuddi o‘zbek tilidagidek oddiy, qiyosiy va orttirma darajalarga bo‘linadi:

gradus positivus — oddiy daraja

gradus comparativus — qiyosiy daraja

gradus superlativus — orttirma daraja

Oddiy daraja		O‘zak	Qiyosiy daraja <i>m, f, n</i>
uzun	longus, a, um	long-	+ ior (m,f), ius (n) longior, ius
qisqa	brevis, e	brev-	brevior, ius
katta	magnus, a, um	noto‘g‘ri darajali sifalar	Major (m,f), ius (n)
kichik	parvus, a, um		Minor (m,f), us (n)

Sifatning qiyosiy darajani hosil qilish uchun:

Rod	M	f	n
Nom. Sing	Ior	ior	ius
Gen. sing	ioris		

Qiyosiy daraja Masculinum va Femininum rodga tegishli sifatlarning qiyosiy darajasini hosil qilish uchun sifat negiziga -ior, Neutrum rodga esa -ius qo‘shimchasini qo‘shish lozim. Qiyosiy darajadagi sifatlar uchinchi guruhda turlanuvchi otlar kabi turlanib uchala roddagi sifatlar Gen. Sing. da ior+is qo‘shimchasiga ega bo‘ladi. Qiyosiy darajali sifatlarning kelishiklarda turlanish namunasi: Latior, ius — kengroq, purior, ius- tozaroq, durior, ius-qattiqroq.

Quyidagi qiyosiy darajadagi sifatlar anatomik terminlarda oddiy darajada tarjima qilinadi:

anterior, ius oldingi

posterior, ius orqadagi

superior, ius yuqori

inferior, ius pastki

major, jus katta

minor, us kichik

Qiyosiy darajadagi sifatlar III turlanish bo'yicha turlanadi, ya'ni (Gen. sing.) –is qo'shimchasini oladi. Qiyosiy darajadagi Gen. sing. shakli uchala rod uchun bir xil:

Nom. sing.	Gen. sing.
------------	------------

major (m)	
-----------	--

major (f)	majoris
-----------	---------

majus (n)	
-----------	--

superior (m)	
--------------	--

superior (f)	superioris
--------------	------------

superius (n)	
--------------	--

NB!

1. Qiyosiy darajadagi sifatlarning negizi Gen. Sing. shakli bo'yicha aniqlanadi.

2. Uchala roddagi sifat negizi birxilbo'ladi.

3. Qiyosiy darajadagi sifatlarning negizi m va f rodidagi sifatlarning (Nom. sing.) shakliga mos keladi.

Qiyosiy darajali sifatlarning lug'at shakli quyidagicha bo'ladi:

longior, ius — uzunroq

purior, ius — tozaroq

subtilior, ius — maydaroq

simplicior, ius — oddiyroq

HAR XIL NEGIZLARDAN YASALGAN SIFAT DARAJALARI

(suppletiv)

Quyidagi beshta sifatning qiyosiy va orttirma darajasi noto'g'ri hosil qilinadi, ya'ni har xil negizlarga ega bo'ladi:

QUYIDAGI SIFATLARNI YODLANG!

anterior, ius — oldingi
posterior, ius — orqangi
superior, ius — yuqorigi
inferior, ius — pastki
major, jus — kattaroq
minor, minus — kichikroq

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
Bonus,a,um – yaxshi	melior,ius – yaxshiroq	optimus,a,um-juda yaxshi
Malus,a,um – yomon	pejor,yus – yomonroq	pessimus,a,um-juda yomon
Magnus,a,um – katta	major,yus-katta	maximus,a,um-juda katta
Parvus,a,um – kichik	minor,nus-kichik	minus,a,um-juda kichik

45 – mashq. Sifatlarni otlar bilan moslashtiring:

Yuqori (o'simta, o'yma, teshik), pastki (yoy, yuza, boylam), kata (egat, qanot, bosh), kata va kichik shox, oldingi (egat, do'mboqcha, boylam, teshik), pastki (bo'shliq, qism, qirra), kichik (do'mboqcha, teshik, chuqurcha).

46 – mashq. Tarjima qiling:

Katta tanglay kanali, traxeya va katta bronch,pastki burunga tegishli chig'anoq, oldingi ko'z yosh qirradi, kichik tohsimon nerv,pastki qalqonsimon do'mboqcha, orqa uzunroq boylam,pastki hiqqildoqqa tegishli arteria.

47 – mashq. Tarjima qiling.

Processus superior,incisura superior, foramen superius, arcus posterior, facies posterior,ligamentum posterius,sulcus mayor,ala mayor, caput mayus, cornu mayus et minus, labium inferius.

48-mashq. Sifatlarning qiyosiy darajasi lug'at shaklini tuzing:

minor, major, anterior, superior, inferior, posterior, simplicior, longior, brevior, albior, rubrior.

II. O'zbek tiliga tarjima qiling:

anterior, superior, inferior, minus, majus, anterior, posterior, inferior, posterior, superius, minor, major.

III. Sifatlarni otlar bilan moslashtiring:

yuqori (o'simta, o'yma, teshik); orqa (ravoq, yuza, boylam); katta (egat, qanot, bosh); katta va kichik (shox); oldingi (do'mboqcha, egat, qirra, boylam, teshik); pastki (sinus, qism, o'tkir qirra); kichik (do'mboqcha, teshik, chuqur)

IV. Lotin tiliga tarjima qiling:

katta tanglay kanali, kekirdak va katta bronx, pastki burunga oid chig'anogi, oldingi ko'z yoshga oid qirra, kichik toshsimon asab, pastki qalqonsimon do'mboqcha, orqa uzun boylam, tashqi ko'ruv asabining qini, pastki hiqildoqqa oid arteriya.

V. Qiyosiy darajadagi sifatning Gen. sing. ni hosil qiling:

major, us; minor, us; inferior, ius; superior, ius; posterior, ius; anterior, ius; brevior, ius; longior, ius; simplicior, ius; latior, ius; albior, ius; nigrior, ius.

VI. Gen. sing. ga qo'ying:

processus superior, incisura superior, foramen superius, arcus posterior, facies posterior, ligamentum posterius, sulcus major, ala major, caput majus, cornu majus et minus, labium inferius, ramus superior, incisura ischiadica major, tuberculum obturatorium posterius.

VII. O'zbek tiliga tarjima qiling:

musculus scalenus anterior, tuberculum musculi scaleni anterioris, processus articularis superior, fovea articularis processus articularis superioris, caput superius musculi pterygoidei lateralis, cingulum membri superioris, tuberculum mediale processus posterioris tali, tendo musculi tibialis posterioris, nervus cutaneus brachii lateralis inferior.

VIII. Lotin tiliga tarjima qiling: A. katta tanglay egati, yuqori ko'ndalang boylam, katta tanglayga oid teshik, oldingi medial yuza, yuqori ko'ndalang arteriya, oldingi uzun boylam, yuqori bo'yin gangliyi, katta toshsimon asab, orqa g'alvirsimon teshik.

B. kichik quymuch o'ymasi, orqa dumba chizig'i, pastki bo'g'im o'simtasi, yuqori orqa yonbosh o'tkir qirra, oldingi dumg'aza teshigi, oldingi teri shoxchasi.


C. oldingi til bezi, katta til osti yo'li, pastki lab, yuqori orqa alveola teshigi, kichik yonoq mushagi.

D. pastki toshsimon sinusning egati, katta do'mboqcha qirradi, pastki burun Chig'anog'i o'simtasi, katta qanotning chakkaga oid yuzasi, darvoza venaning o'ng tarmog'i, bel umurtqasining yuqori bo'g'im o'simtasi, pastki bo'sh venaning kirish teshigi, bo'yinturuq venasining yuqori piyozchasi, yuqori qovoqning mushagi, til osti suyagning katta shoxi.

E. yuqori a'zo skeleti, kichik boldir suyagi boshchasining oldingi boylami, miyachaning oldingi bo'lagi, siydik pufagining tubi, kichik toshsimon asab kanalining tirqishi (yorig'i), ponasimon suyakning kichik qanoti, yuqori bo'sh venaning kirish teshigi.

Savollarga javob bering.

1. Sifatlarining qiyosiy darajasi qanday hosil qilinadi?
2. Qiyosiy darajali sifatlarning lug'at shakli qanday yoziladi.
3. Har xil negizli sifatlarni aytib bering.



1. Odam sohalarining lotin tilida nomlanishi

10-mavzu . Ortirma daraja

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. Ortirma daraja
2. Qo'shimchalari.
3. Kelishiklarda turlanishi haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1.Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н.. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

4.O'quv – uslubiy majmua

5. Mavzuga oid PPT.

6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1.O'tilgan mavzuni so'rash;

2.Yangi mavzu bayoni;

3.Mashqlar bajarish;

4.Mustaxkamlash;

5.Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

1. Sifatlarning orttirma darajasini hosil qilish uchun sifat negiziga issim

va -us, -a, -um rod qo‘shimchalari qo‘shiladi:

pur-issimus, a, um — juda ham (eng) toza

subtil-issimus, a, um — juda ham (eng) mayda

simplic-issimus, a, um — juda ham (eng) oddiy

2. Masculinum rodga tegishli -er qo‘shimchali sifatlarning orttirma darajasini hosil qilish uchun Nom. Sing. ga -rimus, -rima, -rimum qo‘shimchalari qo‘shiladi:

Niger-rimus, a, um — juda ham (eng) qora

acer-rimus, a, um — juda ham (eng) o‘tkir

Orttirma darajali sifatlari I va II guruhda turlanuvchi otlar kabi kelishiklarda turlanadi. Orttirma darajali sifatlarning lug‘at shakli quyidagicha bo‘ladi:

Purissimus, a, um — juda ham (eng) toza

subtilissimus, a, um — juda ham (eng) mayda

simplicissimus, a, um — juda ham (eng) oddiy

maximus, a, um — juda ham (eng) katta

minimus, a, um — juda ham (eng) kichik

optimus, a, um — juda ham (eng) yaxshi

Kelishiklarda turlanishi.

48-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

musculus latissimus dorsi, musculus pectoralis major, vena cordis magna, vena cava superior, foramen occipitale magnum, membrum inferius, prognosis optima, musculus longissimus thoracis, paries anterior, canales palatini minores, foramen palatinum majus, foramen ischiadicum majus, venae frontales superiores.

49-mashq. Quyida berilgan sifatlarni otlar bilan moslashtiring va tarjima qiling:

A). Dumg‘azaga oid teshik, yuz suyagiga doir mushak, bo‘g‘imga oid o‘simta, bronxial nafas qisishi, qoringa oid ichterlama, tibbiy vosita, tozalangan suyuqlik, eruvchan kukun, mushak ichiga igna orqali dori yuborish, markaziy, ko‘k tomir, tibbiy efir, oddiy kukun.

B). Vertebra (cervicalis), facies (muscularis), nervus (sacralis), os (fibularis), processus (maxillaris), os (nasalis), suppositorium (vaginalis), dosis liquor (volatilis), os (sphenoidalis), arteria (pulmonalis), cartilago (nasalis).

Mavzuga oid savollar:

- 1.Orttirma daraja deb nimaga aytiladi?
- 2.Orttirma darajaning qo'shimchalari qanday?
3. Kelishiklarda turlanishiga misollar keltiring.

11- MAVZU. UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI OTLAR

Dars maqsadi:

Talabalarga-

1. Uchinchi guruxga kiruvchi otlar;
2. Kelishik qo'shimchalari;
3. Istisno so'zlar haqida ma'lumot berish.

Dars jixozlari:

1. Darslik. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.

2. Чернявский М.Н. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007г.

3. Xodjayeva L.U., Zohidova X.A., Rahmatullayva Z. Z. Lotin tili. Darslik 2005 y. Andijon.

4. O'quv – uslubiy majmua

5. Mavzuga oid PPT.

6. Tarqatmalar.

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni so'rash;
2. Yangi mavzu bayoni;
3. Mashqlar bajarish;
4. Mustaxkamlash;
5. Uyga vazifa, mustaqil ish;

Xulosa:

Bugungi dars bo'yicha olgan bilimlarini xulosalab yozish.

Atamalarni yod olish va tarjima qila olish.

1. Uchinchi guruhga Masculinum, Femininum va Neutrum rodlariga tegishli otlar kirib, ular Nom. Sing. da har xil qo‘shimchalarga ega bo‘ladi. Uchinchi guruhdagi otlarning asosiy xususiyati, uchala roddagi otlar Gen. Sing. da -is qo‘shimchasiga ega bo‘lishidir.

2. Masculinum va Femininum rodlaridagi otlar kelishiklarda turlanganda bir xil qo‘shimchalarga ega bo‘ladi.

3. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlar teng murakkab bo‘ladi, bunda Gen.

Sing. dagi bo‘g‘inlar soni Nom. Sing. dagi bo‘g‘inlar soniga teng bo‘ladi. Noteng murakkabda esa Gen. Sing. dagi bo‘g‘inlar soni Nom. Sing. dagi bo‘g‘inlar sonidan ortiq bo‘ladi. Masalan:

Teng murakkab		Noteng murakkab
Nom. Sing.	Cut-is	cor-pus
Gen. Sing.	cut-is	cor-po-ris

4. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning negizi Gen. Sing. dagi -is qo‘shimchasini olib tashlash bilan hosil qilinadi: Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning lug‘at shakli birinchi o‘rinda Nom. Sing. shaklining to‘liq holi, keyin Gen. Sing. ning qo‘shimchasi, so‘ngra rodi ko‘rsatilib, oxirida tarjimai beriladi: Radix, icis, fildiz Nom. Sing. radix, Gen. Sing. radicis. Bir bo‘g‘inli otlar lug‘atda Nom. Sing. shakli bilan birga Gen. Sing. shaklida ham to‘liq yoziladi: Flos, floris, m. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning kelishik qo‘shimchalari Otlarning uchinchi guruhda turlanish namunasi Cortex icis, m- Solutio, onis, f- Semen, inis, n

BIRINCHI GURUH SIFATLARINING UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI OTLAR BILAN MOSLASHISHI

Birinchi guruh sifatlari uchinchi guruhda turlanuvchi otlar bilan rodda va sonda moslashib, faqat kelishiklar bo‘yicha turlanganda qo‘shimchalar har xil bo‘ladi. Masalan: Amarus, a, um —achchiq sifatini cortex, icis,

m —po‘stloq, radix, icis,

f—ildiz, semen, inis,

n—urug‘ otlar bilan moslashtirsak, unda quyidagilar hosil bo‘ladi:

Cortex amarus achchiq po‘stloq, radix amara achchiq ildiz, semen amarum achchiq urug‘. Bunday hollarda cortex, radix, semen otlari uchinchi guruhda amarus, a, um sifati esa birinchi va ikkinchi guruhda kelishiklar bo‘yicha turlanadi.

Sifatlarning otlar bilan moslashuv namunasi

1. Liquor flavus — sariq suyuqlik,
liquor, oris, m — suyuqlik,
flavus, a, um — sariq.

Casus Singularis Pluralis



Nom. liquor flavus liquor-es flav-i

Gen liquor-is flav-i liquor-um flav-orum

Acc. liquor-em flav-um liquor-es flavos Abl. liquor-e flav-o liquor-ibus flav-is

2. Radix amara — achchiq ildiz, radix, icis, f — ildiz, amarus, a, um — achchiq. Casus Singularis Pluralis Nom. radix amara radic-es amarae Gen. radic-is amar-ae radic-um amararum Acc. radic-em amar-am radic-es Amaras Abl. radic-e amar-a radic-ibus amar-is

3. Semen amarum — achchiq urug‘, semen, inis, n — urug‘, amarus, a, um — achchiq. Casus Singularis Pluralis Nom. semen amarum semin-a amar-a Gen. semin-is amar-i semin-us amar-orum Acc. semin-en amar-um semin-a amar-a Abl. semin-e amar-o semein-ibus amar-is semen, inis, n



1.9-rasm. Tana harakatlari.

UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI MASCULINUM RODIGA TEGISHLI OTLAR

-us				
-or+is	-er+is	-ur+is	-ut+is	-ud+is
<i>N</i>			<i>f</i>	
corpus, oris	viscus, eris	crus, cruris	senectus,	incus, udis <i>f</i>
<i>n</i>	<i>n</i>	<i>n</i>	utis <i>f</i>	

3. Ko'pchilik otlarning *Nom.* va *Gen. sing.* dagi negizlari o'zaro mos kelmaydi:

<i>Nom.</i>	cort-ex	rad-ix	crus	pes
<i>Gen.</i>	cortic-is	radic-is	crur-is	ped-is

-es	
Teng bo'g'inli	Noteng bo'g'inli
<i>F</i>	<i>m</i>
pubes, is <i>f</i>	paries, etis <i>m</i>

Qoidadan tashqari holat

1. Quyidagi otlar Neutrus rodiga qarashli: Os, oris, *n* —og'iz, tuber, eris, *n* bo'rtma, tugunak, piper, eris, *n* —qalampir, cor, cordis, *n* —yurak, os, ossis, *n* —suyak, Papaver, eris, *n* — ko'knori, cadaver, eris, *n* — jonsiz (o'lik) tana.

2. Quyidagi otlar Femininum rodiga qarashli:

Gaster, gastris, *f* — oshqozon, me'da; mater, matris, *f* — miya pardasi.

UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI MASCULINUM RODIGA OID OTLARNING YASALISHIDA QO'LLANILADIGAN SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

III turlanish Genus Masculinumdagi otlar

Nominativus Singularis	Genetivus Singularis
-os	-or+is
-or	-or+is
-o	-on/in+is
-er	-er+is
-es	-t/d+is
-ex	-ic+is

1. tor, -sor, -xor soʻz yasovchi qoʻshimchalari harakat maʼnosini anglatadi:

Flexor — bukuvchi: flectere — bukmoq, extensor — toʻgʻrilovchi (yoziluvchi), extendere — toʻgʻrilamoq, adductor — yaqinlashtiruvchi, adducere — yaqinlashtirmoq, abductor — uzoqlashtiruvchi, abducere — uzoqlashtirmoq, rotator — aylantiruvchi, rotare — aylantirmoq, levator — koʻtaruvchi, levare — koʻtarmoq feʼllaridan hosil qilingan.

2. -or soʻz yasovchi qoʻshimchasi jismoniy yoki ruhiy holat maʼnosini anglatadi:

Dolor — ogʻriq, dolere — ogʻrimoq, tumor — shish, oʻsma tumere — shishmoq, rubor — qizarish, rubere — qizarmoq feʼllaridan hosil qilingan.

QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!

Apex, icis, m — uchki qism, boshi

cor, cordis, n — yurak

cortex, icis, m — poʻstloq (teriga oid)

gaster, tris, f — oshqozon

os, oris, n — ogʻizos, ossis, n — suyak

per os — ogʻiz orqali

pes, pedis, m — oyoq

pulmo, onis, m — oʻpka

musculus sphincter, — qisuvchi muskul eris, m

ureter, eris, m — siydik yoʻli

musculus extensor, — yozuvchi muskul , oris, m

musculus flexor, — bukuvchi muskul , oris, m

musculus abductor, — uzoqlashtiruvchi muskul, oris, m

musculus adductor, — yaqinlashtiruvchi muskul, oris, m

